

**M.N. ISRAILOVA**

**LOTIN TILI VA TIBBIY  
FARMATSEVTIK  
TERMINOLOGIYA  
ASOSLARI**

**TOSHKENT**

615  
9820

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

M.N.ISRAILOVA

**LOTIN TILI VA TIBBIY  
FARMATSEVTIK  
TERMINOLOGIYA ASOSLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan tibbiyot  
oliygohi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsija etilgan*



TOSHKENT – 2016

UO'K: 615 (083)  
KBK 5ya2  
I-82

I-82 M.N.Israilova. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. –T.: «Barkamol fayz mediya», 2016, 176 bet.

ISBN 978-9943-11-355-8

«Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari» fani o'quv qo'llanmasi tibbiyot oliygohi talabalari uchun fan namunaviy dasturi asosida yozildi. O'quv qo'llanma 3 ta yo'nalish – anatomiya, klinika va farmatsevtika bo'limi uchun kiritilgan bo'lib, u fundamental va mutaxassislik fanlarini integral o'qitishda talabalarga, ilmiy izlanuvchilarga yaqindan yordam beradi.

Uch bo'limdan iborat bo'lgan mazkur qo'llanmada barcha grammatik mavzular keng yoritildi. Stomatologiya oliygohi barcha fakultetlari uchun leksik minimumlar hamda nazorat ishlari variantlari kabi qismlar kiritildi.

Mazkur qo'llanmaning maqsadi talabalarni lotin tilida tibbiy matnlarni o'qish, anatomik atamalarni tarjima qilish va tushunishga tayyorlash, bemorga klinik tashxisni to'g'ri qo'yish, terminlarni grammatic va orfografik jihatdan retseptni to'g'ri yozishdir.

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat stomatologiya institutining barcha fakulteti birinchi kurs talabalari uchun lotin tili fanini o'zlashtirishda tavsiya etiladi.

UO'K: 615 (083)  
KBK 5ya2

#### Taqrizchilar:

- X.P.Kamilov – Toshkent davlat stomatologiya instituti gospital terapevtik stomatologiya kafedrasi professori;  
F.I.Olimxodjaev – Toshkent davlat stomatologiya instituti odam anatomiyasi va OJTA kafedrasi dotsenti;  
N.A.Suyundiqov – Toshkent farmatsevtika instituti tillar kafedrasi katta o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-11-355-8

© «Barkamol fayz mediya» nashriyoti, 2016.

## KIRISH

Lotin tili (*Lingua Latina*) tillar hindiyevropa oilasining italyan guruhibiga taalluqlidir. U juda qadimda paydo bo'lgan.

Avval bu tilda lotinlar – Italiya markazidagi Latsiya orolida yashovchilar (qabila-urug'), shuningdek, qadimgi Rimda yashovchilar va miloddan avvalgi I asrda Appenin yarim orolida Rimning italiya qabilalari hukumronligi ostidagi urug'lari so'zlashgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalaridan boshlab lotin tili rim regionlari bilan qadimgi madaniyat o'choqlari bo'lmish – Yunoniston, Karfagen, Misr, Suriya va boshqalarga hamda Yevropaning o'sha davrda madaniyati kam taraqqiy etgan qabilalariga kirib bورادи. Asta-sekin Lotin tili territoriyasi hozirgi Ruminiya va Portugaliya yerlarini ham egallangan ulkan Rim imperiyasining hukmron tiliga aylandi. Lekin, agar Yevropaning g'arbiy qismida lotin tili hech qanday qabila tili qarchiligiga uchramay yetarli darajada tez tarqalgan bo'lsa, O'rta Yer dengizi havzasida – Yunoniston, Kichik Osiyo, Misrda uzoqroq davr davomida yozma shakllangan, lotin tiliga nisbatan yuqori madaniyat darajasini o'zida aks ettirgan tillar qarshiligiga uchraydi. Bu regionlarda yunon va ellen yozuvni katta rol o'ynagan. Yunonlar bilan bo'lgan aloqaning bosglanishidayoq rimliklar Yunonistonning yuqori darajada rivojlangan madaniyatning ulkan ta'sirini sezganlar.

Yevropa tibbiyoti "otasi" Buqrot (taxm. miloddan avvalgi 460 – 370-yillarda) yashagan, ijod qilgan. Uning asarlarida ilmiy tibbiy atamashunoslik boshlanishi aniqlangan.

Buqrot o'z asarlarida qo'llangan atamalarning katta qismi xalqaro tibbiy lug'atga kiritilgan. Buqrotdan so'ng qadimgi yunon tilidagi tibbiy atamashunoslikning shakillanishida Aleksandriya tibbiyot mактабидан (miloddan avvalgi IV asr) gerofil III (taxm.miloddan avvalgi 330-yilda tug'ilgan), Erozistar (taxm.miloddan avvalgi 330-240-yillar), keyinroq Ruf Efesskiy (taxm.miloddan avvalgi I asr) va o'qimishli olim, faylasuf, vrach, anatom, farmatsevt Klavdiy Galen (taxm.miloddan avvalgi 129-yillar) eng ko'p hissa qo'shganlar. Ular Buqrot bilan birga bo'lg'usi ilmiy tibbiy atamashunoslikka asos solganlar va uning birinchi qavatini ko'targanlar. Antik tibbiyotni, asosan yunonlar shakllantirganlar. Rim bino bo'lgandan buyon uning madaniy hayotida Yunonistonning tabiiy,

ilmiy va tibbiy fanlari rol oynaydi. Juda ko'plab yunoncha va lotinlashgan so'zlar davrlar mobaynida lotin tiliga kirdi.

Roman tillariga asos vazifasini o'gzaki lotin tili bajaradi. Shu bilan birga adabiy lotin tili kitobiy, "ilm" tili sifatida sun'iy ravishda o'sishni Garbiy Yevropada yana 100 yillar mobaynida o'rta asrlar davrida – o'rta asr lotini, yuksalish (XIV-XVI asrlar) davrida gumanitar lotin nomi bilan davom ettirdi. Lotin tilida o'qitildi, ilmiy asarlar yaratildi. qadimgi yunon va arab hakimlari asarları lotin tiliga o'girildi. Abu Ali ibn Sino (Avitsenna (980-1037)) ning "Tib qonunlari" asari XII asrdayoq lotin tiliga o'girilib, qariyb XVI asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi.

Yuksalish davrining insonparvar olimlari lotin tilini soxtalashtirish, dag'allashtirishga qarshilik ko'rsatib, arab so'zlar aralashib borayotgan toza, klassik lotin tilini saqlab qolishi uchun keskin kurashib kelganlar. Hozirda aytishi va yozilishi lotin transkripsiyasida bo'lgan yunoncha so'zlar Erazm Rotterdamskiy (1469-1536) tomonidan ishlab chiqilgan. Yuksalish davrida lotin tili o'z mavqeini egallab og'zaki va yozma axborotlarda fanning hamma sohalarida olimlarning munozara va tortishuvlarida qollana boshladi.

Xuddi shu davrda xalqaro tibbiy atamashunoslik lotin tili asosiga ko'chadi. Yirik italiyan anatom, odam anatomiyasi bunyodkori Andrey (Andreas) Vezaliy (1514-1564) anatomiya fani bo'yicha dars bergan va lotin tilida o'zining "*De humani corporis fabrica*" – "Inson tanasining tuzilishi" nomli klassik asarini yozgan. Vezaliy lotincha anatomik atamashunoslikning takomillashishida "to'g'ri" sof lotin tilining qayta tiklanishida sara asarlariga asoslanib ko'p xayrli, ibratli ishlarni amalga oshirgan. Atoqli ingliz hakimi, qon aylanish tizimini kashf etgan Uilyam Garvey (1578-1657) o'zining "*Exercitatio anatomica de motu cordis et sanguinis in animalibus*" – "Hayvonlarda yurak va qon harakati borasida anatomik tadqiqot" asarini lotin tilida yozgan. Lotin tilida Yevropa mamlakatlarining atoqli mutafakkirlari, faylasufi, olimlari, hakimlari: F.Bekon, T.Moor, M.Malpigi, T.Gobbs, I.Nyuton, R.Dekart, G.V.Leybnis, N.Kopernik, K.Linney va ko'plab boshqalar o'z asarlarini yozib qoldirganlar.

M.V.Lomonosovning ko'pgina asarları ham lotin tilida yozilgan. Rus tarjimonlari rus tibbiy atamashunosligi yaratilishida faol mehnat qilganlar, Rossiyada birinchi anatom professor, akademik F.P. Protasov rus tilidagi anatomic atamashunoslikka asos soldi. Rivojlanib borayotgan rus tibbiy atamashunosligida ilmiy atamalarni qo'llash va

tartibga solishga XVIII asr rus hakimi va ma'rifatchisi N.M.Maksimovich-Alebadik xizmat ko'rsatgan.

XVIII asrda lotin tili Yevropa ilm-fanida ommaviy tan olingan til sifatida milliy tillar bilan birgalikda fan tarkibiga kirib ketdi. Hatto XIX asr o'rtalarida ham tibbiyot borasidagi ko'plab asarlar lotin tilida yozilar edi. Masalan: Rus xirurgi N.I.Pirogov (1810-1881) ning operativ xirurgiya va topografik anatomiya oid ("Muzlatilgan murda ustida uch yo'nalishda o'tkaziladigan aralash topografik anatomiya", 1889) asari va boshqalar. Atoqli rus farmakolog I.Y.Dyadkovskiy o'zining mashhur "Odam tanasiga dori-darmon ta'sir etishi usullari" nomli dissertatsiyasini lotin tilida yozib, himoya qilgan. 1865-yilgacha rus fuqaro va harbiy farmakopeyaları lotin tilida bosib chiqarildi. Kasallik tarixi ham lotin tilida yozilar edi.

Zamonaviy sharoitda axborotlashgan jamiyatga o'tilishi intellektual shaxsn rivojlantirishni shart qilib qo'ymoqda. Axborotlashgan jamiyatda intellekt va yuksak bilimga ega bo'lish milliy boylik sanalsa, hayotiy faoliyat jarayonida esa, jamiyat a'zolaridan yuqori intellektual salohiyatga va ijodiy faollikka ega bo'lishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida so'zlagan nutqida hozirgi kunda dunyodagi deyarli mutlaq ko'pchilik davlatlar 2008 yilda boshlangan, global miqiyosdag'i yangi resessiya to'lqinlarini keltirib chiqarish xavfini tug'dirayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri ostida qolib kelayotgan bir paytda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti ekanligi alohida ta'kidlab o'tilib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tadilar: "Bugungi kunda umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investisiya va qo'yilmalarining o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilash borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining

asosiy ustuvor yonalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olish mumkin".

Prezident Islom Karimov fikrlaridan anglanadiki, bugun jamiyat rivojlanishinig barcha sohalarida yuksak bilim va intellektga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash davlatimiz taraqqiyotining qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim siyosatini o'zida aks ettiradi. Ijtimoiy soha rivojida esa tibbiyot oliv ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning ham alohida o'rni mayjud. Ana shu sababli tibbiyot oliv ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan biri ularni tibbiyot fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan lotin tilini o'rganishlari, antik, o'rta asr va jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lishi orqali madaniy-intellektual rivojlantirishdir.

## I BOB. LOTIN ALIFBOSI

### 1.1. Fonetika. Unililar. Diftonglar. Undoshlar. Digraflar. Harf birikmalari

Lotin alifbosi 25 harfdan iborat. Ulardan oltita unli harflar, qolganlari undosh harflardir.

Bosma harflar	Yozma harflar	Harflarning nomi	O'zbekcha muqobili
Aa	Aa	a_ (a)	a
Bb	Bb	be (be)	b
Cc	Cc	ce (ce)	ts, s yoki k
Dd	Dd	de (de)	d
Ee	Ee	e (e)	e
Ff	Ff	ef (ef)	f
Gg	Gg	ge (ge)	g
Hh	Hh	ha (xa)	h
Ii	Ii	i (i)	i
Jj	Jj	jota (yota)	y
Kk	Kk	ka (ka)	k
Ll	Ll	el (el)	l
Mm	Mm	em (em)	m
Nn	Nn	en (en)	n
Oo	Oo	o_ (o)	O
Pp	Pp	pe_ (pe)	p
Qq	Qq	qu (qu)	q
Rr	Rr	er (er)	r
Ss	Ss	es_ (es)	s yoki z
Tt	Tt	te (te)	t
Uu	Uu	u_ (u)	u
Vv	Vv	ve (ve)	v
Xx	Xx	ix (iks)	iks
Yy	Yy	ypsilona (ipsilon)	i
Zz	Zz	zeta (zeta)	z yoki ts

## *Unlilarning o'qilishi*

a – a – aorta	– [aorta]	– aorta
e – e – vertebra	– [vertebra]	– umurtqa
o – o – foramen	– [foramen]	– teshik
i – i – vita	– [vita]	– hayot
u – u – rotundus	– [rotundus]	– yumaloq
y – i – miologia	– [miologiya]	– muskullar haqidagi fan

## *Diftonglar*

*Diftong* – ikkita turli unli harflarning bitta tovush sifatida talaffuz etilishi.

Lotin tilida 6 diftong bor:

au – au – auris	– [auris]	– quloq
eu – eu – pneumonia	– [pneumoniya]	– pnevmoniya
ae – e – gangraena	– [gangrena]	– gangrena
oe – e – oedema	– [edema]	– shish

Agar «e» harfi ustida ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda harflar o'zining alohida tovushni ifoda etadi:

aë – ae – aër	– [aer]	– havo
oë – oe – aloe	– [aloe]	– aloe

## *Undosh harflar*

C harfi a, o, u unlilar oldida, barcha undosh harflari oldida, so'z oxirida «k» kabi o'qiladi, masalan:

caput	– [kaput]	– bosh
costa	– [kosta]	– qovurg'a
cutis	– [kutis]	– teri
cranium	– [kranium]	– kalla
lac	– [lyak]	– sut

C harifi e, i, y unlilar oldida va ae, oe diftonglar oldida tursa «ts» kabi o'qiladi. Masalan:

cito	– [tsito]	– tez
cella	– [tsellya]	– hujayra
cyclus	– [tsiklyus]	– sikl
caecus	– [tsekus]	– ko'r
coeruleus	– [tseruleus]	– zangori, ko'k

H harfi o'zbekcha «g» kabi o'qiladi:

herba – [gerba] – ko'kat, o't

homo – [gomo] – inson

K harfi lotin tiliga chet tilidan kirgan so'zlarda ishlatiladi. Masalan:

kalium – [kalium] – kaliy

L harfi juda yumshoq talaffuz etiladi:

lac – [lyak] – sut

S s semen – [semen] - urug'

z unli + S + unli resina – rezina

m, n + S + unli mensis – menzis

X harfi «ks» tovushini beradi: radix – [radiks]

maxilla – [maksillya]

Z z (yunon so'zlarda) zona – [zona]

S (lotin so'zlarda) zincum – [sinkum]

## *Digraflar*

*Digraf* - bitta tovush beradigan ikkita undosh birikmasidir:

ch – x china – [xina]

sch – sx schema – [sxema]

ph – f phosphorus – [fosforus]

rh – r rheum – [reum]

th – t thorax – [toraks]

## *Harf birikmalari*

qu – kv

ngu – unlilar oldida «ngv»

undoshlar oldida «ngu»

ti – unlilar oldida «tsi»

x, s harflaridan keyin «ti»

aqua – [akva]

lingua – [lingva]

angulus – [angulyus]

solutio – [solyutsio]

mixtio – [mikstio]

## *Quyidagi so'zlarni lotincha yozing:*

I. nervus, subkutaneus, akustikus, organon, apeks, skeleton, kaptulym, maksillya, kauda, dentes, kvantus, tenzor, sellya, sangvis, sellulya, artikulyatsio, rino, ensefalon, mukozus, komissura, kvadritseps, fibroza, pleksus, vas, vaza, oskokse, diafragmatikus.

Sifatlar

**Quyidagi anatomik atamalarni o'qing:**

II. Cranium, maxilla, mandibula, dens, vertebra, columna, ulna, clavacula, scapula, thorax, costa, sternum, humerus, radius, femur, carpus, metacarpus, phalanx, patella, fibula, tibia, metatarsus, tarsus.

Quyidagi anatomik atamalarni tarjima qiling:

III. Lingua, pharynx, larynx, trachea, oesophagus, cor, pulmo, lien, diaphragma, hepar, ventriculus, vesica, duodenum, ovarium, testis, pancreas, uterus, colon, intestinum, processus.

## Ibratli so‘zlar

- |  |   |
|--|---|
| 1. Invia est in medicina via sine lingua Latina. | Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.                 |
| 2. Omnium atrium medicina                        | Barcha san'atlar ichida meditsina eng olijanobidir. |

## Leksik minimum

Otlar

átlas	atlant-birinchi bo'yin umurtqasi
áxis	o'qli bo'yin umurtqasi, 2- bo'yin umurtqasi
cáput	bosh, kalla
cérebrum	bosh miya(katta miya), oxirgi miya
cóllum	bo'yin
colúmna	pog'ona
córpus	tana
cráñium	kalla suyagi
dórsum	orqa, orqa tomon
encéphalon	bosh miya
hómo	odam
os (ossa мн. ч.)	suyak
skeleton (sceleton)	skelet
substántia	modda
thórax	ko'krak qafasi
trúnCUS	gavda, tana
vértebra	umurtqa

déxter	o'ng
distális	distal, tanadan uzoq
dorsális	orqa, orqa tomon dorzal
extérnus	tashqi
horizontális	ko'ndalang
intérnus	ichki
laterális	yondagi, lateral
májor	katta
mediális	o'rtta, medial, ichki (o'rtaliqqa yaqin turuvchi)
mediánus	o'rtaliqdagi
médius	o'rtadagi
mínor	kichik, kichikroq
profundus	chuqur
proximális	proksimal, tanaga yaqin
siníster	chap
superficiális	yuzaki
ventrális	ventral, oldinga (qorin tomonga) qaragan, old tomondagı

## Nazorat savollari

1. Lotin tili alifbosida nechta harf bor?
  2. Qanday diftonglarni bilasiz?
  3. C harfi qanday talaffuz qilinadi? (Unli va undosh harflar oldida kelsa).

## 1.2. Urg<sup>6</sup>u

1. Lotin tilida so'zlar bo'g'lnlarga bo'linadi. So'zda qancha unli harf bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. Lotin tilida urg'u odatda so'z oxiridan ikkinchi cho'ziq bo'g'inga qo'yiladi. Agar so'zning oxirgi ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, u holda urg'u oxirgi uchinchini bo'g'inga qo'yiladi.

me - di - cī - na                              fo - ve - a

2. Tovushning uzunligi harf ustiga to‘g‘ri chiziqcha, qisqaligi – yarim oy qo‘yib belgilanadi:

ā-ā, ð-ð

3. Bo'g'inlar so'zning oxiridan hisoblanadi:

pro - fún - dus  
3 2 1

4. Bir bo'g'inli so'zlarda urg'u unli harfga tushadi:

déns, ós

5. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inga tushadi:

vé - na, ós - sa  
2 1 2 1

### *Cho'ziqlik qoidalari*

Bo'g'inlar quyidagi hollarda cho'ziq o'qiladi:

1) ae, oe diftonglari so'z oxiridan ikkinchi bo'g'inda kelsa:

di - aé - ta                    gan - graé - na  
3 2 1                            3 2 1

2) unli harf ikki yoki uchta undoshdan oldin kelsa:

li - ga - mén - tum  
4 3 2 1

3) unli harf z va x undoshlaridan oldin kelsa:

re - flé - xus  
3 2 1

4) -ur, -in ot yasovchi suffikslari:

in - ci - sú - ra                of - fi - cí - na  
4 3 2 1                            4 3 2 1

5) -at, -ar, -al, -os sifat yasovchi suffikslari:

ar - cu - á - tus                oc - ci - pi - tá - lis  
4 3 2 1                            5 4 3 2 1  
ar - ti - cu - lá - ris            ner - vó - sus  
5 4 3 2 1                            3 2 1

Bo'g'inlar quyidagi hollarda qisqa o'qiladi:

1) unli «br» birikmasi oldida kelsa:

vér - te - bra                cé - re - brum  
3 2 1                            3 2 1

2) unli unlidan oldin kelsa:

ó - le - um                        fó - ve - a  
3 2 1                                    3 2 1

3) -ol, -ul ot yasovchi suffikslari:

scá - pu - la                        al - vé - o - lus  
3 2 1                                    4 3 2 1

4) -il, -it, -id, -ic sifat yasovchi suffikslari:

so - lú - bi - lis                flú - i - dus  
4 3 2 1                                    3 2 1  
com - pó - si - tus                tho - rá - ci - cus  
4 3 2 1                                    4 3 2 1

### *Mustahkamlash uchun mashq:*

So'z oxiridan ikkinchi bo'g'ining cho'ziq yoki qisqaligini aniqlang va urg'u qo'ying:

I. medulla osseum, membrum inferius, substantia compacta, ligamentum, processus transversus, corpus maxillae, ductus, choledochus, facies poplitea, palpebra superior, peiosteum, arcus vertebrae.

II. hiatus sacralis, incisura vertebralalis, clavicularis, mentalis, sulcus pulmonalis, foramen spinosum, fossa glandulae lacrimalis, processus zygomaticus, incisura supraorbitalis, pars squamosa, cribrosus.

### *Ibratli so'zlar*

1. Amat victoria curam.

Intilganga tole yor.

2. Alit lectio ingenium.

O'qish aqlini oziqlantiradi.

### *Leksik minimum*

### *Otlar*

acromion	yelka o'sig'i
articulatio	bo'g'im
brachium	elka
canális	kanal
cingulum	belbog'
clavicula	o'mrov suyagi
coccyx	dum suyagi
costa	qovurg'a

dens	tish
fissura	o'yiq, yoriq
forāmen	teshik
fossa	chuqurcha(uzun)
fovea	chuqurcha(dumaloq)
hiātus	yoriq, tirqish
humērus	yelka suyagi
incisura	o'yma kemtik
mandibula	pastki jag'
maxilla	yuqori jag'
membrum	tana a'zosi, a'zo oxiri (qo'l-oyoq uchlari)
olecrānon	tirsak o'sig'i
periosteum	suyak usti pardasi
radius	bilak suyagi
scapula	kurak
tuber	do'mboq, bo'rting, g'udda
tuberculum	do'mboqcha, g'uddacha
ulna	tirsak suyagi

### Sifatlar

articularis	bo'g'imga oid
clavicularis	o'mrov suyagiga oid
coccygēus	dum suyagiga oid
costālis	qovurg'alarga oid
jugularis	bo'yinturuqqa oid
pharyngēus	halqumga oid
thoracicus	ko'krakka oid
transversus	ko'ndalang

### Nazorat savollari

1. Lotin tili so'zlarida bo'g'in soni nimaning soniga bog'liq?
2. Bo'g'inalar qaysi tomondan boshlab hisoblanadi?
3. Qaysi hollarda bo'g'in cho'ziq o'qiladi?
4. Qaysi hollarda bo'g'in qisqa o'qiladi?

## II BOB. ANATOMIK TERMINOLOGIYA

### 2.1. Ot. Ot va uning grammatic kategoriyalari

Ot so'z turkumlaridan biri bo'lib, kim? nima? so'rog'iga javob bo'ladı. Lotin tilida otlar uchta rod, ikkita son, oltita kelishik va beshta turlanishga ega. Ot Lotin tilida Nomen Substantivum deb ataladi.

Rod Lotin tilida Genus, eris, n deb ataladi:

Genus masculinum (m)	- mujskoy rod
Genus femininum (f)	- jenskiy rod
Genus neutrum (n)	- sredniy rod

Son Lotin tilida Numerus, i, m deb yuritiladi:

Numerus Singularis (Sing.)	- birlik (son)
Numerus Pluralis (Plur.)	- ko'plik (son)

Kelishik Lotin tilida Casus, us, m deb yuritiladi:

Nominativus (Nom.)	- bosh kelishik -kim? nima?
Genetivus (Gen.)	- qaratqich kelishik -
Dativus (Dat.)	kimning? nimaning?
Accusativus (Acc.)	- jo'nalish kelishik - kimga? nimaga?
Ablativus (Abl.)	- tushum kelishik - kimda? nimada?
Vocativus (Voc.)	- o'rın payt kelishik - kimni? nimani?
	- chiqish kelishik - kimdan? nimadan?

Ot 5 ta turlanishga ega bo'lib lotin tilida Declinatio, onis, f deb tarjima qilinadi:

Turlanish tipi qaratqich kelishigi birlik qo'shimchasi yordamida aniqlanadi

Turlanish	I	II		III			IV		V
Rod	f	m	n	m	f	n	m	n	f
Nom. Sing.	a	us er	um on	har xil			us	u	es
Gen. Sing.	ae	i		is			us		ei

qovurg'a	costa, ae, f	I turl.
asab	nervus, i, m	II turl.
to'siq	septum, i, n	II turl.
tirsak o'simtasi	olecranon, i, n	II turl.
odam	homo, inis, m	III turl.
qism	pars, partis, f	III turl.
suyak	os, ossis, n	III turl.
yoy	arcus, us, m	IV turl.
tizza	genu, us, n	IV turl.
yuza	facies, ei, f	V turl.

### Otning lug'at shakli. Otning negizini topish

#### Otlarning lug'at shakli quyidagilardan iborat:

1. Bosh kelishik birlikda so'z atama to'liq yoziladi.
2. Qaratqich kelishigi birlik qo'shimchasi.
3. Rod belgisi.
4. Tarjimasi.

ala, ae, f	-	qanot
digitus, i, m	-	barmoq
sternum, i, n	-	to'sh

### Negiz

So'zning asosiy qo'shimchasiz qismi *negiz* deb ataladi. Negizni aniqlash uchun so'z qaratqich kelishigiga qo'yilib uning qo'shimchasi olib tashlanadi.

Bosh k.	Qaratqich k.	Rod	Negiz
costa	costae	f	cost
nervus	nervi	m	nerv
homo	hominis	m	homin
pars	partis	f	part
corpus	corporis	n	corpor
arcus	arcus	m	arc
genu	genus	n	gen
facies	faciei	f	faci

### 2.2. Moslashmagan aniqlovchi

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishik birlik yoki ko'plik-dagi ot bilan ifodalanim, gapda otdan keyingi o'rinda keladi.

Qaratqich aniqlovchi o'zbek tiliga ot yoki sifat tarzida tarjima qilinadi:

sulcus nervi	-	nervning egati
crista tuberculi	-	do'mboqchaning qirrasи
ramus mandibulae	-	pastki jag'ning shoxchasi

Qaratqich aniqlovchi o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qilinganda ega birinchi o'rinda keladi, aniqlovchi o'zi aniqlagan otdan keyin keladi:

umurtqaning tanasi	-	corpus vertebrae
nima?	-	tana (b. k.) nimaning? - umurtqaning (q. k.)

### Mustahkamlash uchun mashq:

Lotin tiliga tarjima qiling:

I. umurtqaning tanasi, qovurg'aning boshchasi, aortaning yoyi, kalla suyagining asosi, burunning bo'shlig'i, kurakning bo'yinchasi, bo'yinning muskuli, pastki jag'ning o'ymasi, egarning orqasi, suyakning tanasi, barmoqning suyagi, tizzaning arteriyasi, qovurg'a bo'yinchasing qirrasи, asab tugunining kapsulasi, yuqori jag'ning do'mbog'i.  
II. to'sh suyagining dastasi, yelka suyagining boshchasi, kalla suyagining choki, asabning shoxchasi, tirsak o'simtasining chuqurchasi, nog'oraning bo'shlig'i, tizza qopqog'ining asosi, bosh miyaning asabi, bilak suyagining bo'yinchasi, burunning yo'li.

### Ibratl so'zlar

1. Scientia potentia est.

2. Mens sana in corpore sano.

Bilim kuchdir.

Sog'lom tanda, sog' aql.

### Leksik minimum

#### I turlanishdagi otlar

ala, ae f	qanot
aorta, ae f	aorta
arteria, ae f	arteriya
concha, ae f	chig'anoq
costa, ae f	govurg'a
crista, ae f	qirra

lamīna, ae f	pilakcha
lingua, ae f	til
mandibula, ae f	pastki jag‘
maxilla, ae f	yuqorigi jag‘
orbīta, ae f	ko‘z olmasi
raphe, es f	chok(paydag)
scapula, ae f	kurak suyagi
spina, ae f	o‘tkir qirra
vena, ae f	vena
vertebra, ae f	umurtqa
patella, ae f	tizza qopqog‘i
sutūra, ae f	chok(suyak)
tuba, ae f	nay, truba
bucca, ae f	lunj
gingīva, ae f	milk
lingula, ae f	tilcha
papilla, ae f	so‘rg‘ich
protuberantia, ae f	bo‘rtma tepalik
pulpa, ae f	mag‘iz, yumshoq modda

## II turlanishdagi otlar

angulus, i m	burchak
brachium, i n	yelka
cavum, i n	bo‘shliq
cranium, i n	kalla suyagi
ligamentum, i n	boylam
musculus, i m	mushak
septum, i n	to‘sinq
sulcus, i m	egat, egatcha
tympanum, i n	nogora parda
calcaneus, i m	tovon suyagi
digītus, i m	barmoq
humērus, i m	yelka suyagi
manubrium, i n	dastak
radius, i m	bilak suyagi
sternum, i n	to‘sh suyagi

alveolus, i m	katakcha
frenulum, i n	yugancha
jugum, i n	tepalik
labium, i n	lab

## III turlanishdagi otlar

corpus, öris n	tana
forāmen, īnis n	teshik
os, ossis n	suyak
crus, cruris n	oyoqcha

## IV turlanishdagi otlar

arcus, us m	ravoq
cornu, us n	shox
meātus, us m	yo‘l
ductus, us m	oqim
processus, us m	o‘sinqcha
sinus, us m	sinus, bo‘shliq
textus, us m	to‘qima
genu, us n	tizza

## V turlanishdagi otlar

facies, īi f	yuza
--------------	------

## Nazorat savollari

1. Lotin tilida qanday rodlar mavjud?
2. Lotin tilida so‘zlar qanday turlanadi?
3. Otlarning lug‘at shakli qanday yoziladi?
4. Lotin tilida so‘zning negizi qanday aniqlanadi?

### III BOB. SIFAT

#### 3.1. Sifatlarning lug'at shakli

Sifatlarning ikki guruhi. Moslashgan aniqlovchi

Sifat so'z turkumlaridan biri hisoblanib qanday? qanaqa? savollarija javob bo'ladi. U Lotin tilida **Nomen Adjectivum** deb ataladi. Sifat har doim otni aniqlab, undan keyin yoziladi.

1. Sifatlarni lug'atda mujskoy roddi to'liq yoziladi. Keyin jenskiy va sredniy rod qo'shimchalarini yoziladi:

	m	f	n
uzun	longus	a	um
erkin	liber	era	erum
o'ng	dexter	tra	trum

2. Mujskoy va jenskiy rod bir xil qo'shimchaga ega bo'lgan sifatlarning lug'at shakli ikki komponentdan: mujskoy va sredniy roddagi bir xil shakldan hamda sredniy rod qo'shimchasidan iborat:

	m, f	n
umurtqaga oid	vertebralis	e
peshonaga oid	frontalis	e

Sifatlarni ikki guruhga ega. I guruh sifatlari 3ta rod qo'shimchasini to'liq oladi (1-jadval). II guruh sifatlari m, f bir xil qo'shimchaga ega, n esa boshqa qo'shimchaga ega (2-jadval).

Moslashgan aniqlovchi otning rodini va kelishigini oladi. Misol uchun:

O'ng tarafagli	qanot
Dexter, tra, trum	ala, ae, f
m f n	

ala so'zi jenskiy rod birlik sonida bo'lganligi uchun xuddi shu rod va sondagi sifatni qabul qiladi.

#### Ala dextra

chap tarafagli	muskul
sinister, tra, trum	musculus, i, m
m f n	
	musculus dexter
chap tarafagli	do'mboqcha
sinister, tra, trum	tuberculum, i, n
m f n	
	tuberculum sinistrum

II guruh sifatlari anatomiyada ko'proq is, e qo'shimchali bo'ladi. Misol uchun:

peshonaga tegishli	qism
frontalis, is, e	pars, rtis, f
m f n	
	pars frontalis
peshonaga tegishli	o'simta
frontalis, is, e	processus, us, m
m f n	
	processus frontalis
peshonaga tegishli	do'mboqcha
frontalis, is, e	tuberculum, i, n
m f n	
	tuberculum frontale

#### Mustahkamlash uchun mashq

Ot va sifatni rod, kelishikda moslashtiring:

- I. processus (alveolaris, e; calcaneus, a, um; frontalis, e; mastoideus, a, um); musculus (alaris, e; profundus, a, um; auricularis, e; biventer, tra, trum; brevis, e; longitudinalis, e; cutaneus, a, um; brachialis, e; rectus, a, um; scalenus, a, um); ligamentum (dorsalis, e; deltoideus, a, um; fibrosus, a, um; palmaris, e; pubicus, a, um; annularis, e; teres, etis, cruciatus, e, um; thyroideus, a, um);
- II. vena (angularis, e; coronaries, a, um; gastricus, a, um; centralis, e; cavus, a, um); fructus (dulcis, e; amarua, a, um, maturus, a, um); oculus (dexter, tra, trum; sinister, tra, trum); nervus (abducens, ntis; lacrimalis, e; facialis, e; petrosus, a, um; plantaris, e; vagus, e, um).

### 3.2. Sifat darajalari

Lotin tilida sifatlar uchta darajaga ega:

1. Oddiy daraja – *Gradus positivus*
2. Qiyosiy daraja – *Gradus comparativus*
3. Orttirma daraja – *Gradus superlativus*

Oddiy daraja	O'zak	Qiyosiy daraja m, f, n
uzun	longus, a, um	long- + ior, ius longior, ius
qisqa	brevis, e	brev- brevior, ius
katta	magnus, a, um	noto'g'ri sifat major, jus
kichik	parvus, a, um	darajalari minor, us

Quyidagi qiyosiy darajadagi sifatlar anatomik atamalarda oddiy darajada tarjima qilinadi:

anterior, ius	oldingi
posterior, ius	orqa
superior, ius	yuqori
inferior, ius	pastki
major, jus	katta
minor, us	kichik

Qiyosiy darajadagi sifatlar III turlanish bo'yicha turlanadi, ya'ni (Gen. Sing.) -is qo'shimchasini oladi. Qiyosiy darajadagi Gen. Sing. shakli uchala rod uchun bir xil:

Nom. Sing.	Gen. Sing.
major (m)	majoris
major (f)	
majus (n)	
superior (m)	
superior (f)	superioris
superius (n)	

Sifatlarning orttirma darajasi oddiy daraja negiziga *-issim* suffiks (-er qo'shimchali sifatlardan tashqari) va rodlarning qo'shimchalari (m) -us, (f) -a, (n) -um yordamida hosil bo'ladi:

Oddiy daraja	Suffiks	Orttirma daraja m, f, n
uzun	longus, a, um	-issim- longissimus, a, um
qisqa	brevis, e	-issim- brevissimus, a, um
qizil	ruber, bra, brum	-rim- ruberrimus, a, um

### Qiyosiy daraja

oldingi	anterior, ius
orqadagi	posterior, ius
yuqori	superior, ius
pastki	inferior, ius
katta	major, jus
kichik	minor, us

### Orttirma daraja

postremus, a, um
supremus, a, um
infimus, a, um
maximus, a, um
minimus, a, um

### Esda tuting! Nota Bene!

1. Qiyosiy darajadagi sifatlarning negizi Gen. Sing. shakli bo'yicha aniqlanadi.
2. Uchala roddagi sifat negizi bir xi lbo'ladi.
3. Qiyosiy darajadagi sifatlarning negizi mujskoy va jenskiy roddagi sifatlarning (Nom. Sing.) shakliga mos tushadi.

### Mustahkamlash uchun mashq:

#### I. Tarjima qiling:

katta tanglayning kanali, traxeya va katta bronx, pastki burunga tegishli chig'anoq, oldingi ko'zining qirrasi, kichik toshsimon nerv, pastki qalqonsimon do'mboqcha, orqa uzunroq boylam, pastki hujaldoqqa tegishli arteriya.

#### II. Anatomiq terminni Gen. Sing. ga yozing:

processus superior, incisura superior, foramen superius, arcus posterior, facies posterior, ligamentum posterius, sulcus major, ala major, caput majus, cornu majus et minus, labium inferius, ramus superior, incisura ischiadica major, tuberculum obturatorium posterius

### Ibratli so'zlar

- |                                |                               |
|--------------------------------|-------------------------------|
| 1. Natura sanat, medicus curat | Tabiat sog'lomlashtiradi,     |
| morbos.                        | shifokor davolaydi            |
| 2. Citius, altius, fortius     | Tezroq, balandroq, kuchliroq. |

### Leksik minimum I turlanishdagi otlar

bursa, ae f	xalta
pleura, ae f	plevra
vena portae	darvoza venasi
valvula, ae f	to'siq

## *II turlanishdagi otlar*

cerebellum, i n	miyacha
cerebrum, i n	katta bosh miya
nervus, i m	nerv
nodus, i m	tugun(limfa)
encephalon, i n	bosh miya
ganglion, i n	tugun(nerv)
oculus, i m	ko'z
ostium, i n	kirish, teshik

## *I guruh sifatlari*

cavus, a, um	bo'shliq
laryngeus, a, um	xiqildoqqa, bo'g'izga oid
magnus, a, um	katta
parvus, a, um	kichkina
pharyngeus, a, um	halqumga oid
profundus, a, um	chuqur
cutaneus, a, um	teriga oid
ischiadicus, a, um	quymichga oid
latus, a, um	keng
longus, a, um	uzun
mastoideus, a, um	so'rg'ichsimon
squamosus, a, um	tangachali
trapezoideus, a, um	trapetsiyasimon

## *II guruh sifatlari*

auricularis, e	qulooqqa oid
dorsalis, e	orqaga oid orqa tomoni
facialis, e	yuzaga oid
muscularis, e	mushakli
parietalis, e	chakkaga oid
ventralis, e	oldinga, ventral tarafga
lacrimalis, e	ko'z yoshiga oid
lingualis, e	tilga oid

## Nazorat savollari

- Qiyosiy darajadagi sifatlardan qanday yasaladi?
- Mujskoy rod otlari Nom.Sing. da qanday qo'shimchalarni oladi?
- M, F, N rod otlari Gen.Sing. ga qanday qo'shimchalarni oladi?

## IV BOB

### 4.1. Otlarning uchinchi turlanishi

1. Uchinchi turlanishga mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi. Ularning bosh kelishik birlikda qo'shimchalari har xil bo'lib, qaratqich kelishigida esa *-is* qo'shimchasini oladi. Otlarning uchinchi turlanishi Lotin tilida **Tertia Declinatio Nomen Substantivum** deb yuritiladi.

N.S. har xil qo'shimchali **m f n** otari

G.S. uchala rod otari uchun 1ta qo'shimcha <b>is</b>	
homo, inis, m	odam
apex, icis, m	cho'qqi, uch
radix, icis, f	ildiz
os, ossis, n	suyak
gaster, tris, f	oshqozon
mater, tris, f	ona, miya pardasi
pia mater	yumshoq miya pardasi
dura mater	qattiq miya pardasi

2. Ko'pchilik otlarning bosh kelishik va qaratqich kelishik birlikdagi o'zagi mos tushmaydi.

Nom.	cort-ex	rad-ix	crus	pes
Gen.	cortic-is	radic-is	crur-is	ped-is

3. Uchinchi turlanishdagi otlarning bosh va qaratqich kelishik birlik o'zaklari teng bo'g'inli yoki noting bo'lishi mumkin.

Teng bo'g'inli		Noteng bo'g'inli	
<i>Nominatives</i>	<i>Genetivus</i>	<i>Nominatives</i>	<i>Genetivus</i>
rete	retis	apex	apicis
canalis	canalis	dens	dentis
pubes	pubis	pars	partis

4. Uchinchi turlanishdagi otlarning negizi faqat ular qaratqich keli-shigiga qo'yilib, *-is* qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

### Mustahkamlash uchun mashqlar

Tarjima qiling:

I. miyachaning po'stlogi, katta bosh miyaning po'stlog'i, katta va kichik ko'st, yurakning cho'qqisi, o'ng va chap o'pka, tilosti suyagi, peshonaga oid do'mboq, dimog'ning egati, o'pkanning medial yuzasi, chap o'pkanning yurak o'ymasi, oshqozonning old devori.

II. tilosti suyagining kichik shoxi, me'danining muskul pardasi, bo'yinturuqning devori, ponasimon suyak, me'danining old devori, yonoq suyagining chakka o'simtasi, quymichning do'mbog'i, uzangining qopqog'i, muskul qorinchasi.

### Ibratli so'zlar

1. Medicus amicus et servus  
aegrotorum.

2. Labor corpus firmat.

Shifokor bemorning ham do'sti,  
ham qulidir.

Mehnat tanani chiniqtiradi

### Nazorat savollari

1. Otlar nechta turlanishga ega?

2. Uchinchi turlanish otlari qanday qo'shimchaga ega?

3. Qanday so'zlarda o'zak bosh va qaratqich kelishikda mos tushmaydi?

### 4.2. Uchinchi turlanish. Mujskoy roddagi otlar

Mujskoy roddagi otlar bosh va qaratqich kelishik birlikda quyidagi qo'shimchalarga ega:

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-os	-or+is
-or	-or+is
-o	-on/int+is
-er	-er+is
-es	-t/d+is
-ex	-ic+is

flos, oris m – gul

tremor, oris m – qaltirash, (titrash)

carbo, onis m – ko'mir

trochanter, eris m – ko'st  
apex, icis m – uchi  
pes, pedis m – tovon, oyoq  
paries, etis m – devor

**Istisno:**  
**Esda tuting!**  
**Nota Bene!**

og'iz – os, oris, n  
suyak – os ossis n

yurak – cor, cordis, n  
do'mboq – tuber, eris, n

### Mustahkamlash uchun mashq:

Tarjima qiling:

- I. miyachaning po'stlogi, katta bosh miyaning po'stlog'i, katta va kichik ko'st, yurakning cho'qqisi, o'ng va chap o'pka, tilosti suyagi, peshonaga oid do'mboq, dimog'ning egati, o'pkaning medial yuzasi, chap o'pkaning yurak o'ymasi, oshqozonning old devori.
- II. tilosti suyagining kichik shoxi, me'danining muskul pardasi, bo'yinturuq devori, ponasimon suyak, me'danining old devori, yonoq suyagining chakka o'simtasi, quymich do'mbog'i, uzangi qopqog'i, muskul qorinchasi.

### Ibratli so'zlar

1. Lege artis.
2. Primum non nocere.

Qoidasi bilan.  
Avval, zarar keltirma!

### Leksik minimum

apex, icis m	cho'qqi
cortex, icis m	po'stloq, po'stloqqa oid modda
flos, floris m	gul
homo, inis m	odam
liquor, oris m	orqa miya suyuqligi
paries, etis m	devor
pulmo, onis m	o'pka
venter, ntris m	qorincha
vertex, icis m	boshning tepa qismiga oid, cho'qqi
vomer, eris m	dimog' suyagi
index, icis m	ko'rsatkich barmoq

humor, oris m	namlik, tananing tarkibiy qismidagi suyuqlik
pes, pedis m	oyoq panjası
pollex, icis m	qo'lning bosh barmog'i
stapes, edis m	uzangi
ureter, eris m	siyidik yo'li

### Istisno so'zlar.

**Esda tuting!**

**Nota Bene!**

os, oris, n	og'iz
os, ossis, n	suyak
cor, cordis, n	yurak
tuber, tuberis, n	do'mboq
gaster, tris, f	me'da, oshqozon
mater, matris, f	ona, miya pardasi
dura mater	miyaning qattiq pardasi
pia mater	miyaning yumshoq pardasi

### Nazorat savollari

1. Otning lug'at shaklini misollar bilan yozing.
2. Lotin tilida ot nechta turlanishda turlanadi?
3. Uchinchi turlanishdagi otlarni qanday ajratamiz?
4. III turlanish mujskoy roddagi otlarning lug'at shaklini ayting.

### 4.3. Uchinchi turlanish Jenskiy roddagi otlar

Jenskiy roddagi otlar bosh va qaratqich kelishik birlikda quyidagi qo'shimchalarga ega:

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-io	-ion+is
-do	-din+is
-go	-gin+is
-as	-at+is
-is	-is
-es	-is
-s	-nt/rt+is
-x	-ng+is

palpatio, onis, f  
consuetude, inis, f  
imago, inis, f

paypaslab ko'rish  
odat  
tasvir

### Mustahkamlash uchun mashq:

I. Qavs ichidagi sifatlarni otlar bilan moslashtirib lotin tiliga tarjima qiling:

(miyaga oid, plevraga oid, nog'oraga oid, bo'g'imga oid) bo'shliq; (detasimon, qanotsimon, yonbosh, chaynovchi) g'adir-budirlik; (o'rta, ichki, tashqi) qulqoq; (toshsimon, medial, yuqori, oldingi, o'ng, chap, suyakka oid, chuqur, belga oid, to'shga oid, yurakka oid) qism; (qanotsimon, qovurg'aga oid, qanotga oid, katta, qalqonsimon, bo'g'imga oid) tog'ay. (kapillyar, limfatik) tomir; (oldingi, songa oid, tovonga oid) soha; (oldingi, peshonaga oid, tangachali, yuqori, erkin, so'rg'ichsimon, o'ng) chet.

II. O'zbek tiliga tarjima qiling.

basis cranii externa, cartilago thyreoidea, pars thoracica, glandula carotis accessoria, cartilago alaris major, margo inferior pulmonis sinistri, auris externa, tuberositas phalanges distalis, phalanx media, basis phalanges mediae, apex patellae, pars thoracica, pyramis renalis, margo uteri dexter, extremitas uterina, tuberositas masseterica, cartilago nasi.

### Ibratli so'zlar

1. Hygiena amica valetudinis.
2. Finis coronat opus.

Tozalik sog'liqning garovidir.  
Har bir ish yakunlanadi.

### Leksik minimum

appendix, icis f	chuvalchangsimon o'simta
a. carotis, tidis f	uyqu arteriyasi
articulatio, onis f	bo'g'im
auris, is f	qulqoq
basis, is f	tubi, asos
cavitas, atis f	bo'shliq chuqurlik
cervix, icis f	bo'yin
cutis, is f	teri
frons, frontis f	peshona
gl. parotis, tidis f	qulqoq oldi bezi

meninx, ngis f	miya pardasi
pars, partis f	qism
radix, icis f	ildizi, ildizchasi
pelvis, is f	tos
pelvis renalis	buyrak jomchasi
pyramis, idis f	piramida
regio, onis f	soha
synchondrosis, is f	sinxondroz, tog'ay
symphysis, is f	birikish
tuberositas atis f	g'adir-budirlik
bilis, is f	o't, safro
extremitas, atis f	tugash qismi
impressio, onis f	botiqlik
iris, idis f	kamalak, ko'zning kamalak pardasi
lens, lentis f	ko'z gayhari
phalanx, ngis f	falanga, barmoq suyagi
pubes, is f	qov suyagi
axis, is m	o'qli bo'yin umurtqa, 2-chi bo'yin umurtqasi
canalis, is m	kanal
dens, dentis m	Tish
margo, inis m	chekka, qirg'oq
sanguis, inis m	qon
tendo, inis m	pay
pancreas, atis n	oshqozon osti bezi
vas, vasis n	tomir
coccyx, ygis m	dum umurtqasi
fornix, icis m	gumbaz
larynx, ngis m	hiqildaq
pharynx, ngis m	halqum
thorax, acis m	ko'krak qafasi

### Nazorat savollari

1. III turlanish jenskiy roddagi otlarning bosh kelishik qo'shimchalarini aytинг?
2. III turlanish jenskiy roddagi otlarda qanday istisno so'zlar bor?
3. III turlanish jenskiy roddagi otlari Gen.Sin.da nechta qo'shimchaga ega?

## Uchinchi turlanish Sredniy roddagi otlar

Sredniy roddagi otlar bosh va qaratqich kelishik birlikda quydagi qo'shimchalarga ega:

Nominativus Singularis	Genetivus Singularis
-en	-in+is
-ma	-at/is
-us,ur	-o/e/u+ris
-e	-is
-l	-ll/ai+is
-ar	-ar+is
-ut	-it+is

### Mustahkamlash uchun mashq:

I. Qavs ichidagi sifatlarni otlar bilan moslashtirib lotin tiliga tarjima qiling:  
 (bo'yinturuqqa oid, yumaloq, oval, katta, ensaga oid so'rg'ichsimon) teshik; (o'ng, chap, lateral, qisqa, uzun, medial, oddiy, umumiy, oldingi) oyoqcha; (uzun, qisqa, chuqur, qiyshiq, lateral) bosh; (g'orsimon, shishasimon, yog'simon) tana; (o'ng, chap, harakatchan, bo'lakka oid, kistoz) buyrak; (qo'shimcha, harakatchan) taloq; (dumga oid, aortaga oid) to'pcha; (sentral, asab, limfatik) tizim; (harakatchan, bo'lakka oid, zinchlashgan) jigar.

### II. O'zbek tiliga tarjima qiling.

glomus caroticum, ren accessorius, systema lymphaticum, sinus occipitalis durae matris, cavitas abdominis, glomus pulmonale, pancreas accessorium, foramen palatinum majus, tegmen tympani, cavitas oris propria, foramen venae cavae, lobus hepatis dexter, hepar mobile, rete venosum, musculus longissimus capitis, diaphragma oris, corpus mandibulae, foramen mentale, crus anterius, rete articulare genus.

### Ibratli so'zlar

1. Una hirunda non facit ver. Bitta qaldirg'och bahor olib kelmaydi.
2. Mala herba cito crescit. Begona o't joy tanlamaydi.

## Leksik minimum

abdomen, inis n	qorin
caput, itis n	bosh
corpus, oris n	tana
diaphragma, atis n	diafragma
foramen, inis n	teshik
crus, cruris n	oyoqcha
hepar, atis n	jigar
occiput, itis n	ensa
pectus, oris n	ko'krak
stroma, atis n	organni biriktiruvchi qismi, to'qimasi
tempus, oris n	chakka, vaqt
zygoma, atis n	yonoq suyagi
chiasma, atis n	kesishma
femur, oris n	son suyagi
glomus, eris n	tugun
systema, atis n	tizim
tegmen, inis n	qopqoq, tom
viscus eris n	ichki organlar

### Nazorat savollari

1. III turlanish sredniy roddagi otlari Nom Sinda qanday qo'shimcha oladi?
2. III turlanish sredniy roddagi otiarda qanday istisno so'zlar bor?
3. III turlanish sredniy roddagi otlar Gen.Sin.da qanday qo'shimchalar oladi?

## V BOB. OTLARNING BIRLIK VA KO'PLIK SHAKLI

### 5.1. Otlarning birlik shakli. Bosh kelishik va qaratqich kelishik

Ot so'z turkumlaridan biri bo'lib kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi. Gaplar, matnlar faqat ot so'z turkumi bilan boshlanadi. U litin tilida Nomen Substantivum deb ataladi.

Otlarning birlik shakli ya'ni lug'at berilish shakli bo'lib ular V ta turlanishga ega. Ularning jadval ko'rinishi quydagicha:

I	II	III	IV	V
F	m n	m f n	m n	f
N.S	a	us um	har xil qo'shimcha	us u

Misol uchun:

Ala, alae, f	arbiculabio, onis, f	genu, us, n
Musculus, i, m	cortex, icis, m	superficies, ei, f

Otlarning qaratqich kelishik birlik shakli quydagicha:

I	II	III	IV	V
f	m n	m f n	m n	f
G.S.	ae	i	is	us

Otlarning bosh va qaratqich kelishik birlik shakli anatomiyada, farmasevtikada ko'p qo'llaniladi.

### Mustahkamlash uchun mashqlar

Quyidagi so'zlarning qaratqich kelishik birlik shaklini va rodini aniqlang:

Atlas, axis, cáput, cerebrum, cólbum, colúmna, corpus, cranium, dorsum, encephalon, hómo, os (ossa mh. ӯ.), skeleton (sceleton), substánstia, thorax, trúnkus.

### Ibratli so'zlar

- Aliis inserviendo consumor. Yonaman, o'zgalarga xizmat qilaman
- Ad maximum. Yuqori nuqttagacha.

- Bosh kelishik birlik shaklidagi jenskiy roddagi otlar qanday qo'shimchalar oladi?
- Bosh kelishik birlik shaklidagi mujskoy roddagi otlar qanday qo'shimchalar oladi?
- Bosh kelishik birlik shaklidagi sredniy roddagi otlar qanday qo'shimchalar oladi?

### 5.2. Otlarning ko'plik shakli. Bosh kelishik va qaratqich kelishik

1. Jadval yordamida otlarning bosh kelishik ko'plik, turlanish va rodлarda o'zgarishlarni kuzating:

Rod	M	F	N
Turlanish			
I		-ae	
II	-i		-a
III	-es		-a, -ia (-e, -al, -ar qo'shimchali otlar)
IV	-us		-ua
V		-es	

### Berilgan misollarni tahlil qiling

Lug'at shakli	Turlanish	Negiz	Nom. Pl.
vertebra, ae, f	I	vertebr-	vertebrae
sulcus, i, m	II	sulc-	sulci
ligamentum, i, n	II	ligament-	ligamenta
dens, dentis, m	III	dent-	dentes
cartilago, inis, f	III	carilagin-	cartilagines
foramen, inis, n	III	foramin-	foramina
processus, us, m	IV	process-	processus
genu, us, n	IV	gen-	genua
facies, ei, f	V	faci-	facies

2. Jadval yordamida otlarning bosh kelishik ko'plik shaklining yasalishiga diqqat qiling.

1. Otlarning bosh kelishik ko'plik shaklini yasash uchun quyidagi amallar bajariladi:

- 1) otning lug‘at shakli olinadi;
  - 2) turlanishi aniqlanadi;
  - 3) negizi ajratiladi;
  - 4) negizga bosz kelishik ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi
- Gen. Pl. shaklini yasash uchun quyidagi larni bilish shart:
- 1) otlarning va sifatlarning lug‘at shakli;
  - 2) turlanishi;
  - 3) negizni to‘g‘ri tanlash;
  - 4) negizga Gen. Pl. qo‘shimchasini qo‘shish.

Eslab qoling:	Turlanish	Gen. Pl.
Nota Bene!	I	-arum
	II	-orum
	IV	-uum
	V	-erum

I, II, V turlanishdagi otlarga I guruh hamda orttirma daraja sifatlariga qaratqich kelishigi qo‘shimchasining umumiyl komponenti «um» xarakteri unli asosga «r» orqali qo‘shiladi. IV turlanishdagi otlarga esa bevosita xarakterli unli «u» ga qo‘shiladi.

Lug‘at shakli	Turi.	Negizi	Xarakterli unli	Qo‘shimcha	Gen. Pl.
glandula, ae, f	I	glandul	a	rum	glandularum
nervus, i, m	II	nerv	o	rum	nervorum
septum, i, n	II	sept	o	rum	septorum
ganglion, i, n	II	gangli	o	rum	gangliorum
textus, us, m	IV	text	u	um	textuum
Anaemiasperniciosa, seumorbus	Xavfli kam qonlik yoki Addison Birmer kasalligi
Addision-Birmer	Addison Birmer kasalligi
Anaemiahæmolitica	Gemolitik anemiya
Morbus Vaclesseupolyctytaemiavera	Vakez kasalligi yoki chin politsitomiya
Haemocytoblastosis	Gemotsitoblastoz
Myeleucosisacuta	O'tkir miolid leykoz
Myeloleucosischronica	Xronik miolid leykoz
Lympholeucosisacuta	O'tkir limfo leykoz
Lympholeucosischronica	Xronik limfo leykoz
Hiatus leucaemicushaemorrhagia	Gemorragiyaning leykemik susayishi
Haemophilia	Gemofiliya
Morbus Werlhof	Verl gof kasalligi
Morbus Schonlein-Henoch	Shenley-Genox kasalligi
Morbus Rand-Osler	Randyu - Osler kasalligi
Agranulocytosis	Agranulotsitoz

## XI BOB. FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA

Farmatsevtik terminologiya «Farmatsiya» (yun. *pharmakeia* – dori tayyorlash va qo'llash) nomi ostiga birlashuvchi va dori-darmonlar tarkibini o'rGANISH, qidirib topish, ishlab chiqarish va qo'llash bilan shug'ullanuvchi qator maxsus fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuada markaziy o'rinni qo'llash uchun rasmiy ruxsatnomaga ega bo'lgan dorivor moddalar va preparatlar ya'ni dori darmonlar nomenklaturasi egallaydi. Dorivor moddalar sifatida qo'llanuvchi ko'pchilik kimyoviy birikmalar ikki xil nomga ega:

- 1) ilmiy yoki tizimli nom;
- 2) trivial (lot. *trivialis* - odatdag'i) nom

### Trivial nomlardagi tarkibiy qismlar

1. Tarkibiy qismlar taxminan anatomiq, fiziologik va terapevtik xarakterdagi ma'lumotni berishi mumkin.

Lotincha	O'zbekcha	Ma'nosi
-cor-, -card-	-kor-, kard-	yurakka ta'sir etuvchi, yurak tonusiga ta'sir etuvchi, toj tomirlarini kengaytiruvchi
-vas-, -angi-	-vaz-, -angi-	qon tomirlarini kengaytiruvchi, spazmolitik
-sept-	-sept-	zararsizlantiruvchi, antiseptik
dol-, -alg-	-dol-, -alg-	og'riqsizlantiruvchi, analgetik
-pres(s)-, -ten(s)-	-pres(s)-, -ten(s)-	qon bosimini tushiruvchi
-sed-	-sed-	tinchlantiruvchi, sedativ
-pyr-	-pir-	haroratni tushiruvchi, antipiretik
-aesthes-	-estez-	og'riqsizlantiruvchi, anestetik
-test-, -vir-	-test-, -vir-	erkak jinsiy gormonlaridan tayyorlangan
-andr-	-andr-	androgen
-thyr-	-tir-	qalqonsimon bez faoliyatiga ta'sir etuvchi
-myco-	-miko-	zamburug'larga qarshi
-chol-	-xol-	o't haydovchi
-cid-	-sid-	mikrobg'a qarshi

2. Farmakologik ma'lumot beruvchi tarkibiy qismlar.

Lotincha	O'zbekcha	Farmakologiyaga mansubligi
-sulfa-	-sulfa-	antimikrob sulfanilamidlar
-cillin-	-sillin-	antibiotik penitsillinlar
-mycin-	-mitsin-	mikrobg'a qarshi antibiotiklar
-cyclin-	-siklin-	tetratsiklin hosilalari antibiotiklar
-barb-	-barb-	uxlatuvchi – barbituratlar, barbiturat kislota hosilalari
-cain-	-kain-	mahalliy o'g'riq qoldiruvchi
-cort-	-kort-	kortikosteroidlar – buyrak usti bezi po'stlog'i gormonlari va ularning sintetik analoglari
-oestr-	-estr-	estrogenlar – ayol jinsiy gormonlari va ularning sintetik analoglari
-andr-	-andr-	androgen steroidlar – erkak jinsiy gormonlari va ularning sintetik analoglaridan tayyorlangan preparatlar

### 11.1. Dori formalari

Dori formalari tibbiyotda uchga bo'linadi:

1. Qattiq dori formalari.
2. Yumshoq dori formalari.
3. Suyuq dori formalari.

Dori nomlari ko'pincha –um qo'shimchasini oladi:

**Analginum, i, n**

**Norsulfazolum, i, n**

**Barbamylum, i, n**

Ular orfografik jihatdan bosh harfda yoziladi.

### Dori shakllari haqida qisqacha ma'lumot

aerosolum, i, n	aerozol
granulum, i, n	granula
gutta, ae, f	tomchi
unguentum, i, n	malham
linimentum, i, n	liniment, suyuq surtma
pasta, ae, f	pasta
emplastrum, i, n	plastir

suppositorium, i, n	suppozitoriy, shamcha
pulvis, eris, m	kukun
tabuletta, ae, f	tabletka
tabuletta obducta	usti qoplangan tabletka
dragee (fr.)	draje
solutio, onis, f	eritma
suspensio, onis, f	suspensiya
emulsum, i, n	emulsiya
pilula, ae, f	hab dori
tinctura, ae, f	tindirma
infusum, i, n	damlama
decoctum, i, n	qaynatma
sirupus, i, m (medicinalis)	sharbat (dorivor)
species, ei, f (ko'p. erum)	yig'ma (dorivor)
capsula, ae, f	kapsula
c. gelatinosa	jelatinli kapsula
c. amyacea seu oblate	kraxmalli yoki o'ramli kapsula
membranulla opthalmica seu lamella opthalmica	ko'z plyonkasi
extractum, i, n	ekstrakt

### Mustahkamlash uchun mashqlar

Dorivor moddalar nomini lotincha transkriptsiyada yozing:

I. streptosid, geperin, fibrinogen, pankreatin, lidaza, apressin, gidrolizin, dikloksatsillin, dikain, korvalol, insulin, nitroglitsrein, rezorsin, raunatin, rezerpin, validol, neodikumarin, papaverin, akrixin, antotsit, angiotenzinamid.

II. tetrasiklin, penitsillin, xinin, bruneomitsin, olivomitsin, amidopirin, piromekain, kardiovalen, oraza, rutin.

O'qing, tarjima qiling, preparat nomlarining grammatik strukturasini tushuntiring.

I. solutio Strophanthini, tabulattae Prednisolini, granula Orasi, tabulattae Octeoestroli, tabulattae Pantocrini, unguentum "Psoriasinum", species antiasthmatica, solutio Camphorae oleosa, emplastrum Epilini, Streptocidum solibile, solutio Streptocidi solubilis.

II. suspensio "Cindolum", suppositoria vaginalia "Osarbonum", tabulattae Mycoseptini obductae, species cholagogae, unguentum Tetracyclini ophtalmicum, linimentum "Sanitas", tabulattae

“Cholenzymum”, tabulattae “Praegoestrolum”, flores Calendulae, solutio Glucosi, tabulattae “Panhexavitum”, dragee “Aevitum”, species amarae.

### Ibratli so‘zlar

- |                                   |                              |
|-----------------------------------|------------------------------|
| 1. Pigritia est mater vitiorum.   | Yalqovlikning oxiri xo‘tlik. |
| 2. Repetitio est mater studiorum. | Takrorlash bilimning Onasi.  |

### Nazorat savollari

1. Dorivor modda sifatida qo‘llaniluvchi kimyoviy birikmalar asosan qanday turdag'i nomlarga ega?
2. dorivor moddalar qanday harfda yoziladi?
3. lamella ophtalmica so‘zi birlikdamni yoki ko‘plikda ishlatiladi?

### 11.2. Retsepda fe’llarni ishlatilishi

Predmetning harakatini bildirib “nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?” so‘roqlarga javob beradigan so‘z turkumi *fe’l* deb ataladi. Lotin tilida fe’ller shaxs, son va zamonda o‘zgaradi. Fe’l 3ta shaxs, 2ta son (birlik va ko‘plik), 6ta zamon, 4ta mayl, 4ta tuslanishga ega:

I tuslanish	II tuslanish	III tuslanish	IV tuslanish
-a	-e	undosh yoki -u	-i

Retseptning lotincha qismi buyruq maylidagi “Recipe” – “Ol” fe’li bilan boshlanadi. Uning lug‘at shakli *recipio, ere, 3* - “olmoq” bo‘lib, retseptda buyruq maylida birlikda ishlatilmaydi.

### ESLAB QOLING:

#### Buyruq mayli

- |                   |                             |
|-------------------|-----------------------------|
| Misce. Da. Signa. | - Aralashtir. Ber. Belgila. |
| Sterilisa.        | - Sterilizatsiya qil.       |
| Repete.           | - Takrorla.                 |
| Da tales doses.   | - Shunday do‘zalarda ber.   |
| Adde.             | - Qo‘sh.                    |
| Misceatur.        | - Shart mayli               |
|                   | - Aralashtirilsin.          |
| Detur.            | - Berilsin.                 |

- |                     |                                |
|---------------------|--------------------------------|
| Signetur.           | - Belgilansin.                 |
| Sterilisetur.       | - Sterilizatsiya qilinsin.     |
| Repetatur.          | - Takrorlansin.                |
| Dentur tales doses. | - Shunday do‘zalarda berilsin. |

### Mustahkamlash uchun mashqlar

Farmatsevtik atamalarni tarjima qiling:

- I. kseroform surtmasi, dibazol tabletkalari, yalpiz tindirmasi, papaverin eritmasi, yalpiz barglarining damlamasi, adrenalin eritmasi, qalampir yalpiz moyi, amidopirin donachalari, ixtiol surtmasi, evkalipt barglarining damlamasi, sulfadimezin tabletkalari, evkalipt moyi, kanakunjut moyining emulsiyasi, novshadil spirti.
- II. Dibazol eritmasi ineksiya uchun, ildizpoya valeriana ildizlari bilan, shamchalar dimidrol bilan bolalar uchun, yo‘talga qarshi tabletkalar, furatsilin eritmasi tashqaridan qollash uchun, di profillin eritmasi ampulalarda, dimidrol eritmasi shpris tyubiklarda, kapsulalardagi kanakunjut moyi toza holda, narkoz uchun efir, validol tabletkalarda, “Aevit” kapsulalarda, amidopirin va fenatsetin tengma-teng 0,25, ampitsillin kukini suspenziya uchun.

Retseptni lotin tiliga tarjima qiling:

- Ol: Eufillin 0,1.  
 Dimedrol 0,0125.  
 Shakar 0,2.  
 Aralashtir, kukun hosil bo‘lsin.  
 Shunday dozalarda 12 dona kapsulalarda ber.  
 Belgila.

### Ibratli so‘zlar

1. Verba movent, exempla trahunt. So‘zlar uyg‘otadi, misollar o‘ziga tortadi
2. Sol lucet omnibus. Quyosh hammaga teng boqadi.

### Nazorat savollari

1. Retseptning lotincha qismi qaysi so‘z bilan boshlanadi?
2. «Repete» so‘zi qaysi maylda ishlatiladi?
3. «Da tales doses» ning shart mayli qanday yoziladi?

### 11.3. Retsepda ko'makchinig ishlatilishi

Lotin tilida ko'makchilar ikkita kelishik: akkuzativ va ablyativda ishlatiladi.

#### 1. Akkuzativda qo'llanadigan ko'makchilar:

ad (gacha, uchun, ichida) 20,0	- 20,0 gacha
ad usurn internum	- ichkariga qo'llash uchun
ad vitrum nigrum	- qora shishada
contra (qarshi) tissum	- yo'talga qarshi
per (orqali) os	- og'iz orqali
per inhalationem	- ingalyatsiya yordamida
post (keyin) mortem	- o'limdan so'ng

#### 2. Ablyativus bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

cum (bilan) extracto	- ekstrakt bilan
ex (-dan) aqua	- suvdan
pro (uchun) injectionibus	- ineksiya uchun

Retsept Recipe (Ol) fe'lidan boshlanadi. Har bir dori-darmon yangi qatordan yoziladi. Qatorning boshlanishida Recipe: dan keyin dorivor modda va o'simlikiar nomi bosh harf bilan boshlanadi. Dorivor moddalarning nomlari qaratqich kelishligida yoziladi.

Masalan: Recipe: Infusi herbae Thermopsis 0,1- 100 ml.  
Liquoris Ammonii anisati 1 ml.  
Natrii benzoatis 0,6.  
Siripi Althaeae 20 ml.  
Misceatur. Detur. Signetur.

Qattiq va sachratuvchi dorivor modallar miqdori grammalar bilan belgilanadi «gramm» so'zi yozilmaydi, uning raqami o'nli kasr bilan ifodalanadi.

Masalan: Recipe: Unguenti Zinci 30,0  
Recipe: Extracti Belladonnae 0,015  
Suyuq dorilarning miqdori millilitrda beriladi:  
Recipe: Olei Vaselini 30 ml. (30,0)  
Recipe: Extracti Crataegi fluidi 20,0

Suyuq dorivor preparatlarning miqdori 1 ml kam bo'lsa u tomchilarda dozirovka qilinadi va birlikda akkuzativda (guttam), ko'plikda (guttas) yoziladi.

Ikkita yoki bir nechta dorivor moddalar teng miqdorda berilsa uning dozasi oxirgi dorivor moddadan so'ng ko'rsatiladi va raqam oldida ana (tengma -teng) so'zi yoziladi.

Recipe: Amidopyrini.

Analgini ana 0,25.

Da tales doses numero 32 in tabulettis.

Signa.

#### Mustahkamlash uchun mashqlar

I.Nuqtalar o'rnini kerakli ko'makchilar bilan to'ldiring:  
methylenum coeruleum in capsul ..., solution Oestradioli oleosa in ampull ..., Collargolum in vitr ... nigr ..., rhisoma cum radic..., suppositoria cum extract... Belladonnae, suppositoria cum Euphyllin..., tabulettae contra tuss..., tabulettae Dimedroli pro infant..., aqua pro injection..., oleum pro inhalation..., praepara ex tempor..., solution Iodi ad us ... intern..., Chloroformium pro naarcos..., remedium pro dos..., pulvis pro suspension ..., solution Dimedroli in spritz-tubul....

II.Quyidagi retseplarni tarjima qiling:

Ol: Valeriana ekstrakti 0,3.

Do'lana nastoykasi 0,15.

Ravoch nastoykasi 0,8.

Barbital-natriy 0,2.

Etil spirti 20 ml.

Distillangan suv 200 ml gacha.

Aralashtirilsin. Berilsin. Belgilansin.

Ol: Monomitsin 0,25.

Shunday dozalarda 10 dona ber.

Belgila.

#### Ibratli so'zlar

1. Non scholae, sed vitae discimus. Biz maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyimiz  
Aytildi, bajarildi.
2. Dictum – factum .

#### Nazorat savollari

1. Lotin tilida ko'makchilar qanday kelishiklarda qo'llaniladi?
2. Retsept qaysi fe'l bilan boshlanadi?
3. "gramm" o'Ichov birligi retsepta qanday o'zgarishga ega?
4. "Dsgramm" o'Ichov birligi retsepta qanday o'zgarishga ega?

## 11.4. Retsepda tabletka, shamcha va ko'z plynokasini ishlatalishi

I. Murakkab dori-darmon qo'shtirnoq ichida beriladi:

Tabulettae "Codterpinum"  
"Kodterpin" tabletkalari.  
Suppositoria "Neo-Anusolum"  
"Neo-Anuzol" shamchalar.

II. Tabletalar bitta ta'sir etuvchi moddadan iborat bo'lsa, dori shaklidan keyin qaratqich kelishigida yoziladi:

Tabulettae Cordigit 0,0008  
Kordigit tabletkalari 0,0008

III. Shamchalar bitta ta'sir etuvchi moddadan iborat bo'lsa uning nomi dori shakliga "cum" yordamida qo'shiladi va Ablyativda yoziladi, keyin doza belgilanadi.

Suppositoria cum Cordigo 0,0012  
Shamchalar Kodigit bilan 0,0012

IV. Reseptlarda tabletalar va shamchalar qisqartirilib berilsa unda dori shaklini Akkuzativda ko'plikda yozishni unutmang.

Tabulettas, tabulettas obductas, suppositoria, suppositoria vaginalia.  
Tabletkalar, gilofchali tabletalar, shamchalar, vaginal shamlar.

### Retseptlarda so'zlarning grammatik bog'lanishi

Recipe: Tabulettas Monomycini 0,25 numero 50.

Ol: Monomisin tabletalar 0,25 50 dona.

Recipe: Tabulettas "Thepaphyllum" numero 10.

Detur.

Signetur.

Ol: Tepafillin tabletalar 10 dona.

Berilsin.

Belgilansin.

Recipe: Suppositoria cum Ichthyolo 0,2 numero 10.

Detur.

Signetur.

Ol: Ixtiilli shamchalar 0,2 10 dona.

Berilsin.

Belgilansin.

## Mustahkamlash uchun mashqlar

### I. Tarjima qiling:

Qalampir yalpiz moyi, mavrak bargi, marvaridgul o'ti, valeriana nastoykasi, evkalipt moyi, belladonna ekstrakti, furatsilin pastasi, kordigitli shamchalar, tetratsiklin surtmasi, sintomitsin liniment, novokainli vaginal shamchalar, ravoč ildizining kukuni, chayono't barglarining damlamasi, efir narko'z uchun, do'lana nastoykasi, itjumrut po'stlog'ining qaynatmasi, eyil spirit, ergotal eritmasi ineksiyasi uchun.

### II. Reseptni o'qing va tarjima qiling:

Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml.

Da.

Signa..

Recipe: Codeini 0,5

Sirupi Althaeae 10,0

Aquae destillatae 50,0

Da.

Signa..

Recipe: Solutionis Iodi spirituosa 2 ml.

Tannini 3,0

Glycerini 10 ml.

Misce.

Da.

Signa..

### Leksik minimum

#### Dorivor o'simliklarning nomlari

Lotincha	Ingлизча	O'zbekcha
Belladonna, ae f	belladonna [belə'dänə]	belladonna
Crataegus, i f	hawthorn [hō, thōrn]	do'lana
Frangula, ae f	buckthorn [bæk, thōrn]	itjumrut
Rheum, i n	rhubarb [roo, bärb]	rovoch
Urtica, ae f	nettle ['netl]	gazanda

### Dorivor moddalarining nomlari

Lotincha	O'zbekcha
Aether, eris m	efir
Barbitalum-natrium, i n	barbital-natriy
Cacao	kakao
Cordigitum, i n	kordigit
Dimedrolum, i n	uyqu dori
Diprophyllinum, i n	diprofillin
Euphyllinum, i n	eufillin
Furacilinum, i n	furatsilin
Mentholum, i n	mentol
Nitroglycerinum, i n	nitroglitserin
Phenacetinum, i n	fenatsetin
Saccharum, i n	shakar
Tetracyclinum, i n	tetratsiklin
Validolum, i n	validol

### Boshqa so'zlar

Lotincha	O'zbekcha
aethylicus, a, um	etilga oid
aqua, ae f	suv
destillatus, a, um	tozalangan
fluidus, a, um	suyuq
obductus, a, um	qoplangan
oleosus, a, um	yog'li, moyli, yog'da
quantum satis	qancha kerak
spiritus, us m	spirit

### Nazorat savollari

- “Ol” fe'lidan keyin tabletka, shamcha va ko'z plyonkasi qaysi kelishikda yoziladi?
- “cum” ko'makchisi jenskiy roddagi otlarda qanday qo'shimchani talab qiladi?
- “cum” ko'makchisi sredniy roddagi otlarda qanday qo'shimchani talab qiladi?
- O'simlik dunyosi yunon tilida nima deb ataladi?
- O'simliklar qaysi rodda mansub?

### 11.5. Retseptda kimyoviy elementlar. Kislotalar

Barcha kimyoviy elementlarning nomlari II turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, faqat ikkita: *Sulfur, uris, n* (III turlanish) – oltingugurt va *Phosphorus, i, m* – fosfor kimyoviy elementlarining nomi bundan istisno.

**Eslatma!** Kimyoviy elementlarning belgisi lotincha nomlardan olingan bo'lib, ularning orfografik xususiyatini aks ettiradi: Ca - Calcium, Fe - Ferrum, K – Kalium va boshqalar.

Kislotalarning lotincha nomi ikkita so'zdan iborat: *acidum, i, n* - kislota va mos kelgan sifat. Birinchi o'rinda ot, ikkinchi o'rinda sifat keladi. Sifat kislota nomini yasovchi element negiziga *-ic+um*, *-os+um* qo'shimchasi yordamida yasaladi.

*-icum* qo'shimchasi kislota tarkibida kislород miqdorining ortiqligini bildiradi va o'zbek tilidagi *-at-* qo'shimchasiga to'g'ri keladi:

Acidum sulfuricum – sulfat kislota

*-osum-* qo'shimchasi kislota tarkida kislород miqdorining kamligini bildiradi va o'zbek tilidagi *-it-* qovshimchasiga to'g'ri keladi:

Acidum sulfurosum – sulfit kislota

Kislородsiz kislotalarning nomlaridagi sifatlarning tarkibi quydagicha yasaladi: *hydro-* old qo'shimchasi + kislota nomini yasovchi element nomining o'zagi + *-icum* va o'zbek tilidagi *-id* qo'shimchasiga to'g'ri keladi:

Acidum hydrosulfuricum – sulfid kislota

### Asosiy kimyoviy elementlarning nomlari

Kimyoviy element	Lotincha nomi	O'zbekcha nomi
Al	Aluminium, ii n	alyuminiy
Ag	Argentum, i n	kumush
As	Arsenicum, i n	margimush
Au	Aurum, i n	oltin
B	Bromum, i n	brom
Ba	Barium, i n	bary
Bi	Bismuthum, i n	vismut
C	Carboneum, i n	uglerod
Ca	Calcium, i n	kalsiy
Cl	Chlorum, i n	xlor
Cu	Cuprum, i n	asal

F	Fluorum, i n seu Phthorum (греч.)	ftor
Fe	Ferrum, i n	temir
H	Hydrogenium, i n	vodorod
Hg	Hydrargyrum, i n	simob
I	Iodum, i n	yod
K	Kalium, i n	kaliy
Li	Lithium, i n	litiy
Mg	Magnesium, i n Magnium, i n	magniy
Mn	Manganum, i n	marganets
N	Nitrogenium, i n	azot
Na	Natrium, i n	natriy
O	Oxygenium, i n	kislород
Pb	Plumbum, i n	qo'rg'oshin
Ph	Phosphorus, i m	fosfor
S	Sulfur, uris n	oltingugurt
Si	Silicium, i n	kremniy
Zn	Zincum, i n	rux

### Mustahkamlash uchun mashqlar

Quyidagi retseplarni tarjima qiling:

I. Ol: Yog' kislota tabletkalari 0,25 50 dona.

Ber.

Belgilga.

II. Ol: Benzoat kislotasi 0,6.

Salitsilat kislotasi 0,3.

Vazelindan 10,0.

Aralashtir, surtma hosil bo'lsin.

Ber.

Belgilga.

III. Ol: Askorbin kislota drajesi 0,5.

Ber.

Belgilga.

IV. Ol: Asetilsalitsilat kislotasi.

Fenatsetin tengma-teng 0,25.

Kofein 0,20

Shunday dozalarda 12 dona tabletkalarda ber.

Belgilga.

### Ibratli so'zlar

1. Festina lente.

2. Male parte cito dilabuntur  
memoria.

Sekin shoshilgin.

Yomon o'zlashtirilgan narsa, tezda  
yoddan chiqadi.

### Nazorat savollari

1. Kimyoviy elementlar qaysi turlanish va qanday rodda bo'ladi?

2. Qaysi kimyoviy moddalar bundan mustasno?

3. Kislorodsiz kislotalarning lotincha nomi qanday yasaladi?

### 11.6. Retseptda oksidlar, tuzlar va uglevodorodlar

Oksidlarning nomlari ikkita so'zdan iborat: birinchi o'rinda elementning nomi qaratqich kelishigida, ikkinchi o'rinda oksid nomi keladi.

Oxy- kislород borligini ko'rsatadi, old qo'shimchalari esa birikma tarkibini aniqlaydi:

oxydum, i, n oksid

peroxydum, i, n peroksid

hydroxydum, i, n gidroksid

Tuzlarning nomlari kation va anionning nomidan yasaladi. Birinchi o'rinda qaratqich kelishigida ifodalangan kationning nomi, ikkinchi o'rinda esa bosh kelishigidagi anionning nomi turadi.

Anionlarning nomlari mos keluvchi kislotalarning lotincha nomi o'zagiga -as, -is, -id+um suffikslarni qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Lug'at shakl modeli			Turl.	Lotincha misollar	O'zbekcha misollar	
Nom.	Gen.	Rod.			Suff.	Anion nomi
as	atis	m	III	sulfas, atis, m	at	sulfat
is	itis	m	III	sulfis, itis, m	it	sulfit
id-um	id-i	n	II	sulfidum, i, n	id	sulfid

Uglevodorod radikal nomlarida qo'llaniladigan tarkibiy qismlar -yl- suffaksi yordamida yasalgan uglevodorodli radikalning nomlari dorivor moddalar nomlarini yasovchi murakkab otlardan iborat:

Benzylpenicillinum, Aethylmorphinum, Acidum acetylsalicylum  
Ba'zan radikallarning nomlari mustaqil so'z hoida ishlataladi:

Methylii salicylas, Phenylli salicylas, Amylli nitris  
Kimyoiy ma'noga ega bo'lgan tarkibiy qismlarning orfografiyasini  
esda tuting:

**meth** - metil guruh

**aeth** - etil guruh

**phen** - fenil guruh

**benz** - benzol guruh

### Mustahkamlash uchun mashqlar

Quyidagi retseplarni tarjima qiling:

I. Recipe: Morphini hydrochloride 0,01.

Sacchari 0,1.

Misce, fiat pulvis.

Dentur tales doses numero 6

Signetur.

II. Recipe: Mentholi 0,1.

Natrii hydrocarbonatis.

Natrii tetraboratis.

Natrii chloride ana 5,0.

Misce, fiat pulvis.

Detur.

Signetur.

III. Recipe: Thiamini chloridi.

Riboflavini ana 0,003.

Acidi nicotinici 0,02.

Da tales doses numero 50 in dragee.

Signa.

### Ibratli so'zlar

1. Amicus certus in re incerta cernitur.

Chin do'st boshga kulfat  
tushganda bilinadi.

2. Radices litterarum amare sunt  
fructus dulces.

Fanning ildizlari achchiq,  
mevalari esa shirindir.

### Leksik minimum

#### I.

acidum aceticum	sirka kislota
acidum acetylsalicylicum	asetilsalitsil kislota
acidum adenosintriphosphoricum	Adenozintrifosfor kislota
acidum ascorbinicum	askorbin kislota
acidum benzoicum	benzoy kislota
acidum carbolicum	karbol kislota
acidum carbonicum	karbon kislota
acidum citricum	limon kislota
acidum folicum	foliy kislota
acidum glutaminicum	glyutamin kislota
acidum lacticum	sut kislota
acidum lipoicum	yog' kislota
acidum nicotinicum	nikotin kislota
acidum nitricum	nitrat kislota
acidum phosphoricum	fosfat kislota
acidum salicylicum	salitsil kislota
acidum sulfuricum	sulfat kislota

#### II.

acidum arsenicosum	arsenat kislota
acidum ~ nitrosum	nitrit kislota
acidum ~ sulfurosum	sulfit kislota

#### III.

acidum hydrochloricum	xlorid kislota
acidum ~ hydrocyanicum	sianid kislota
acidum ~ hydrosulfuricum	sulfid kislota

### Nazorat savollari

- Oksidlar qanday yasaladi?
- Tuzlar qanday yasaladi?
- Uglevodorodlar qanday yasaladi?

### 11.7. Retsepturada qisqartmalar

Shifokor retsept yozib berar ekan, qabul qilingan qisqartmalardan foydalanadi. Dori shaklining nomlari, o'simlik qismlarining nomlari,

standart retseptura formulirovkalari qisqartiriladi. Dorivor moddalar va o'simliklarning nomlari qisqartirilmaydi.

### Retsepturada qo'llaniladigan muhim qisqartmalar

Qisqartma	To'liq yozilishi	Ma'nosi
aa	ana	teng miqdorda
ac, acid	acidum	kislota
ad us. ext.	ad usum externum	sirtdan qo'llash uchun
ad us. int.	ad usum internum	ichdan qo'llash uchun, ichish uchun
aq.	aqua	suv
aq. dest.	aqua destillata	distillangan suv
comp., cps., cpt.	compositus, a, um	murakkab
concentr.	concentratus, a, um	konsentrangan
cort.	cortex	po'stloq
D.	Da. Detur. Dentur.	Ber. Berilsin.
dec., det.	decoctum	qaynatma
dil.	dilutus, a, um	suyultirilgan
D.t.d.	Da (Dentur) tales doses	Shunday dozalarda ber
Div. in p. aeq.	Divide in partes aequales	Teng qismlarga bo'l
empl.	emplastrum	plastir
emuls.	emulsum	emulsiya
extr.	extractum	ekstrakt
f.	fiat, fiant	hosil bo'lsin
fl.	flos	gul
fluid.	fluidus, a, um	suyuq
fol.	folium	barg
fr.	fructus	meva
gel.	gelatinosus, a, um	jelatinli
gran.	granulum	granula
gtt., gtt.	guttam, guttas	tomchi, tomchilar
h., hb.	herba	maysa
in ampull.	in ampullis	ampulalarda
in caps.	in capsulis	kapsulalarda
inf.	infusum	damlama

in tab.	in tabulettis	tabletikalarda
in vitr. nigr.	in vitro nigro	qora shishada
linim.	linimentum	liniment
liq.	liquor	suyuqlik
M.	Misce. Misceatur.	aralashtir. aralashtirilsin.
m. pil.	massa pilularum	hab dorili massa
mucil.	mucilago	shilliq
N.	numero	soni (dona)
obd.	obductus, a, um	qobiqli
past.	pasta	pasta
pct., praec.	praecipitatus, a, um	cho'ktirilgan
pro inject.	pro injectionibus	inyeksiya uchun
pulv.	pulvis	kukun
q.s.	quantum satis	keraklichcha
r., rad.	radix	ildiz
Rp.:	Recipe:	Ol:
rectif.	rectificatus, a, um	tozalangan
rhiz.	rhizome	ildizpoya
S.	Signa. Signetur.	Belgila. Belgilansin.
sem.	semen	urug'
simpl.	simplex	oddiy
sir.	sirupus	sharbat
sol.	solutio	eritma
sp.	species	yig'ma
spir.	spiritus	spirit
Steril.	Sterilisa! Sterilisetur!	Sterilizatsiya qil! Sterilizatsiya qilinsin!
supp.	suppositorium	sham
supp. vagin.	suppositorium vaginale	qinga oid sham
susp.	suspensio	suspenziya
tab.	tabuletta	tabletka
t-ra, tinct.	tincture	tindirma
ung.	unguentum	surtma
vitr.	vitrum	shisha

## Mustahkamlash uchun mashqlar

Qisqartmalarni qo'llab tarjima qiling:

I. Ol: Metilestradiol tabletkalari 0,0002.

Berilsin.

Belgilansin.

II. Ol: Aminazin eritmasi 2,5% 2 ml.

Glukoza eritmasi 5% 20 ml.

Aralashtirilsin. Sterilizatsiya qilinsin!

Berilsin.

Belgilansin.

III. Ol: Aloening suyuq ekstrakti 1 ml.

Shunday dozalarda 10 ampulalarda.

Ber.

Belgila.

IV. Ol: Mentol 2,5.

Novokain.

Anestezin teng miqdorda 1,0.

Etil spirit 70% 100 ml gacha.

Aralashtir.

Ber.

Belgila.

## Ibratli so'zlar

1. De facto.

Dalillar asosida, amalda.

2. De jure.

Yuridik jihatdan, rasmiy.

## Leksik minimum

### O'simliklar nomlari

Adonis vernalis m, f	bahorgi adonis
Aloë, és f	aloe
Althaea, ae f	gulxayri
Digitatis, is f	angishvonagul
Hypericum, i n	dalachoy
Millefolium, ii n	bo'ymodaron

## Preparat nomlari

Aethazolum, i n	etazol
Aminazinum, i n	aminazin
Ampicillinum, i n	ampitsillin
Anaesthesia, i n	anestezin
Bromisovalum, i n	bromisoval
Chinosolum, i n	xinozol
Corazolum, i n	korazol
Desoxycorticostero num, i n	Dezoksikortikosteron
Dichlothiazidum, i n	dixlotiazid
Erythromycinum, i n	eritromitsin
Furazolidonum, i n	furazolidon
Liquor Ammonii anisa tus (Liquoris Ammonii anisati)	novshadil-anis, arpabodiyon
Methyloestradiolum, i n	metilestradiol
Neomycinum, i n	neomitsin
Nystatinum, i n	nistatin
Osarsolum, i n	osarsol
Phenazepamum, i n	fenazepam
Phthoracizinum, i n	ftoratsizin
Streptomycinum, i n	streptomitsin
Sulfadimezinum, i n	sulfadimezin
Theobrominum, i n	teobromin

## Nazorat savollari

1. Retsepda qanday otlar qisqartirilmaydi?
2. «Da tales doses» qanday qisqartiriladi?
3. Distillangan suvning retseptdagи qisqartirilgan varianti qanday bo'ladi?

## 11.8. Retsepturada ravishdosh

### Ravishdosh

So'z turkumlaridan biri hisoblangan ravishdosh Lotin tilida klinika va farmatsevtik terminologiyada ishlatalidi. U lotin tilida **Adverbium** deb ataladi. Ravishdosh harakatning holatini bildirib, qay tarzda? qay holatda? so'roqlariga javob bo'ladi.

Ravishdosh mustaqil ravishda gapda, matnlarda ishlataladi.

Misol uchun: Ubi – qaerda?

Ibi – ana shu yerda

Saepo – ko'pincha

Semper – har doim

I guruh sifatlari orqali ravishdosh sifatlarning asosiga suffiks –L yoki –O orqali;

II guruh sifatlari asosiga – iter yoki – er orqali yasaladi;

Citus, a, um – cito! – Tez

Asepticus, a, um – aseptice – aseptik sharoitda

Aequabilis, e – aequabiliter – muvozonatda

Recens, ntis – recenter – yangi

Qiyosiy daraja ravishdoshlari sifatida shu daraja sifatlarining sredniy rodi ishlataladi.

Orttirma daraja ravishdoshlari shu daraja sifatlari yordamida suffiks –L orqali yasaladi.

- Citius – tezroq

- Citissime – yanada tezroq

Resepturada ishlataladigan ravishdoshlar.

1. Dorilarni tezroq olish kerak bo'lsa.

Cito! yoki Statim!

(tez) (shu zahoti)

2. Agar bir qancha dori formalari bir hil dozalarda bo'lib, ularning sanog'i oxirgi dori formasida Soni oldidan

Ana (teng) (tepa-teng) – so'zi bilan belgilanadi.

3. Shamchani yoki kakao yog'ini qancha doza berilishida quyidagi

Quantum satis – qancha kerak bo'lsa? ravishdoshi ishlataladi.

4. Agar I kurs davolash davomida dori formasi takrorlansa – ravishdosh –son fe'l oldidan

Bis, ter (II marta, III marta ishlataladi)

## XII BOB

### YaMS tizimi asosida interfaol o'yinlar, testlar, holatiy mashqlar

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quydagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir".

Pedagogik adabiyotlarda ta'lim texnologiyasiga berilgan boshqa ta'riflar ham keltiriladi, bizningcha, eng maqbuli YUNESKO ta'rifidir.

**"TA'LIM TEXNOLOGIYASI"** – ta'lim modellarini optimallashirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash **TIZIMIDIR**.

Ushbu bobda fanni o'zlashtirishda qo'llaniladigan interfaol o'yinlar, holatiy masalalar va testlarga to'xtalib o'tamiz.

### Klaster "axborotni yoyish" usuli

Klasterga ajratish pedagogik strategiya bo'lib, o'qish variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqealar)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, biror mavzu talabalarni erkin va ochiqdan ochiq fikrlashiga yordam beradi. "Klaster" so'zi g'uncha, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag'batlantirish uchun qollash mumkin. Asosan, u yangi fikrlarni uyg'otishdir. Mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

Biror mavzu bo'yicha klasterlar tuzishni, bu mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanan maqsadga muvofiq.

### Klaster tuzish ketma-ketligi

1. O'quv xona yozuv taxtasi o'rtasiga katta qog'oz varag'iga asosiy so'z yoki gapni yozing.

2. Sizni fikringizcha bu mavzuiga tegishli bo'lgan so'zlar yoki gaplarni yozing.

3. Tushuncha va g'oyalalar to'g'risidagi o'zaro bog'lanishini o'rganish.

4. Eslagan variantlaringizni hammasini yozing.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha talabalar ishtirok etishadi, bu guruhda paydo bo'lgan g'oyalarning o'zagini aniqlashni ta'minlaydi.

Klaster tuzishni muayyan tushuncha yoki g'oyani "ayukash" fazasida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bunda talaba materialni nafaqat mustaqil va faol o'zlashtirishi, balki bu tushunchalarini ham kuzatib borishlari zarur. Asosiy tushuncha va munosabatlarning Klaster tarkibidagilar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni aniqlash va kreativ fikr yuritishni rivojlantiradi, uning "atrofida" turlicha nazar tashlashga majbur etadi. Klaster tuzish miya uchun yaxshigina misol bo'lishini aytib o'tish lozim.

1. O'zingiz dars beradigan fanning bir mavzusiga oid asosiy tushuncha bo'yicha Klaster tuzing.

2. Tushunchaning bir biriga o'xshash xossalari umumlashtirib, Klasterni tashkil etuvchilarni toifalarga ajrating.

### Qorbo'ron o'yini

Bu usul talabalarda harakat va qiziqishni oshirib, yanada leksik minimumlarni va grammatik mavzuni mustahkam puxta egallab olishlariga yordam beradi. Bu metodda talabalar o'zaro savol-javob qiladilar. Bir talaba boshqa talabaga savol beradi, u talaba savolga javob bera olsa, o'z navbatida o'zi istagan talabaga savol beradi. Eng ko'p javob bergen talaba eng ko'p savol bergen talabaga savol beradi. Talabalar bergen savollar miqdoriga qarab baholanadi. O'qituvchi talabalarning javoblarini nazorat qilib, har bitta to'g'ri javobga ball qo'yib boradi va baholaydi.

O'yinni boshlash uchun mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalinish mumkin:  
atlas, axis, dorsum, homo, thorax, major, medius, profundus, vertebra, substantia, lateralis, ventralis, truncus, horizontalis, superficialis i.e.

### Aqliy hujum

Bu o'yin biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Bu metod orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin. U to'g'ri va ijobjiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. «Aqliy hujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi;
2. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular xatto, bo'limg'ur bo'lsa ham hisobga olinadi;
3. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi;
4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
5. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

O'yinni boshlash uchun mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalinish mumkin:

bursa, valvula, vena portae, cerebellum, encephalon, nodus, ostium, oculus, cavus, cutaneus, latus, auricularis, lacrimalis, lingualis i.e.

### «Miyaga hujum» o'yini

Bu o'yinda guruhdagi barcha talabalar ishtirok etadi. Birinchi bo'lib ustoz mushtdek keladigan koptokchani xohlagan talabasiga qarab otadi va koptokchani ushib olgan talabaga bitta o'zbekcha so'z aytadi. Bunda talaba zukkoligini namoyon qilib, tezkorlik bilan shu so'zning lotincha tarjimasini aytadi. So'zni to'g'ri tarjima qilgan va javob berishda tezkorlik ko'rsatgan talaba o'yinda qatnashishda davom etadi va koptokchani xohlagan boshqa talabaga qarab otadi. Shartlarni bajara olmagan talaba o'yindan chetlashtiriladi va shu tariqa qatnashuvchilar soni tobora kamayib borib, g'olib(lar) aniqlanadi.

O'yinni boshlash uchun mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalinish mumkin:

articulatio, basis, radix, regio, pelvis, frons, cavitas, auris, phalanx, symphysis, impressio, extremitas, lens, cutis, regio, pubes, iris i.e.

## Qaqshatqich zarba o'yini

Bu o'yinda talabalar ikkita guruhga bo'linib oladilar. Bunda birinchi guruh talabalaridan biri doskaga chiqadi va ikkinchi guruh talabalari undan o'zbekcha so'zlardan tuzilgan anatomiq termini doskadagi raqib guruh talabasiga aytishadi. Doskada u savolga yozma javob beradi va joyiga o'tiradi. Shundan so'ng ikkinchi guruh talabalaridan bir vakil chiqib, birinchi guruh savoliga sha'y turadi. Shunday holda ikkala guruhdagi barcha talabalar savol-javob qilinadi.

O'yinni boshlash uchun mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:  
abdomen, caput, corpus, crus, foramen, hepar, pectus, tempus, tegmen, zygoma, viscus, systema, glomus, occiput, stroma, chiasma, femur i.e.

### "Insert" usuli

Bu usul samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interaktiv tizimidir. U talabalarning bazis bilimlarini tekshirishga, fan yoki mavzu bo'yicha qay darajada bilimga ega ekanligi, qaysi bilimlarga ko'proq e'tibor berish kerakligi haqida ma'lumot olishga mo'ljallangan. Bu metod pedagogga o'quv materialini o'zlashtirish va mustahkamlash borasidagi qator muammolarni hal qilishga yordam beradi. Talabalarga matn bilan, kitob bilan mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish xususiatiga ham ega.

Ushbu metoda talabalarga mavzuning tayyor matni tarqatiladi va ular mavjud bilimlaridan kelib chiqqan holda, matnda quyidagi belgilarni belgilab chiqadilar:

- ✓ men buni bilaman
- + men uchun yangi axborot
- mening bilganlarimga qarama-qarshi
- ? men uchun noma'lum, menga qo'shimcha axborot kerak

Bu usulda mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:  
cancer, colica, coma, cysta, diabetes, eczema, gangraena, glaucoma, hernia, icterus, paralysis, paresis, pneumonia, varix i. e.

### "Baliq" o'yini

Bu usulda mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:

omphalitis, typhlitis, oophoritis, dacryocystitis, trachelitis, cervicitis, salpingitis, orchitis, gonarthrosis, diverticulosis, diverticulitis, mastoiditis.

### "Nafis arra" oyini

Mazkur metod yordamida talabalar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum bilimga mustaqil ega bo'lishi, jamoa bilan ishlash malakasini olishi, axborot bilan almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilishi ko'nikmalariga ega bo'ladi.

O'rganiladigan material
Talabalar 2-3 guruhga bo'linadi
Har bir guruhga o'rganiladigan material bo'yicha mavzu berish
Mavzuni o'rganish va muhokama qilish
Materialga oid muammoli vaziyatni berish
Yangi ekspertlar guruhini tuzish
Har bir mavzu mazmunini o'rganish
Muammoli vaziyatni muhokama qilish va to'g'ri yechimini topish

Bu usulda mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:  
tabulatae Octeoestroli, tabulatae Pantocrini, tabulatae Mycoseptini obductae, species cholagogae, unguentum Tetracyclini ophtalmicum.

### "Qorbo'ron" o'yini

Bu usul talabalarda harakat va qiziqishni oshirib, yanada leksik minimumlarni va grammatik mavzuni mustahkam puxta egallab olishlariga yordam beradi. Bu metoda talabalar o'zaro savol-javob qiladilar. Bir talaba boshqa talabaga savol beradi, u talaba savolga javob bera olsa, o'z navbatida o'zi istagan talabaga savol beradi. Eng ko'p javob bergen talaba eng ko'p savol bergen talabaga savol beradi.

Talabalar bergen savollar miqdoriga qarab baholanadi. O'qituvchi talabalarning javoblarini nazorat qilib, har bitta to'g'ri javobga ball qo'yib boradi va baholaydi.

Bu usulda mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:

linimentum "Sanitas", tabulattae "Cholenzymum", flores Calendulae, solutio Glucosi, tabulattae "Panhexavitum", species amarae.

### "Konkurs" o'yini

O'yin darsning mavzusi, maqsadi, mavzudan kutiladigan natijalar, ushbu mavzu bo'yicha talabalarni baholash mezonlari va mashg'ulot olib borish tartibi tushuniladi. So'ng ikkita kichik guruhlar tuzib olinadi, bu guruhlar yarimdoira shaklida qarama-qarshi bo'lib o'tiradilar.

Kichik guruhlar o'z guruhlariga nom beradilar (misol uchun doktor Aybolit, Aspirin, Ibn Sino va h.k.) va o'z sardorlarini saylaydilar. Sardorlar "Ekspert" ya'ni baholovchi vazifasini bajaradilar.

Guruh sardorlari vazifalar topshiradilar.

Dorilarning qisqartma nomlari va ularni retseptda yozilishi kim tez va xatosoiz yozish ustida ishlanadi.

"Ekspertlar" o'qituvchi boshchiligida bajargan ishlarni baholaydilar. Baholar esa dorilar ramzida belgilanadi:

Askorinka – a'lo

Aspirin – yaxshi

Levomitsetin – o'rtalari

Bu usulda mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin: solutio Strophanthini, tabulattae Prednisolini, suppositoria vaginalia "Osarbonum", tabulattae Mycoseptini obductae, species cholagogae.

### "Yo'lbars" o'yini

O'yin ishtirokchilari: yo'lbars, ovchi yoki sudya

O'yin qoidasi:

1. Talabalar 2 guruhga bo'linadi
2. Guruhlarga sardorlar tayinlanadi
3. Sardorlar o'yin ishtirokchilaridan birini tanlaydi
4. Guruhlar bir-birlariga teskari qarab, qaysi ishtirokchi ekanliklarini kelishib olishadi

5. O'qituvchi tomonidan 3 gacha sanaladi va guruhlar bir-birlariga qarab, o'z ishtirokchilarini namoyon qilishadi

6. Agar 1-guruh ishtirokchisi Yo'lbars bo'lib, 2-si Ovchi bo'lsa, bunda Ovchi Yo'lbarsni otib qo'yadi va Ovchi guruhi Yo'lbars guruhiga savol tashlaydi

7. Agar 1-guruh Ovchi bo'lib, 2-si Sudya bo'lsa, unda Sudya Ovchini sud qiladi va Sudya guruhi Ovchilarga savol tashlaydi

8. O'yin shu tariqa ishtirokchilarni tanlash orqali davom ettiriladi

9. Savollar 7 gacha raqamlangan bo'ladi va savol beruvchi guruh 1 ta raqamni tanlab savol beradi.

Ushbu usulni boshlash uchun mavzu bo'yicha quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:

Benzylpenicillinum, Aethylmorphinum, Acidum acetylsalicylum, Methylii salicylas, Phenylii salicylas, Amylii nitris.

**LOTIN TILI VA TIBBIY FARMATSEFTIK TERMINOLOGIYA  
ASOSLARI FANINI O'ZLASHTIRISHDA ANATOMIYA,  
KLINKA VA FARMATSEVTIKA BO'LIMLARI BO'YICHA  
TALABALAR UCHUN VAZIYATLI (HOLATIY) MASHQLAR**

Anatomik terminlarni tarjima qiling:

**1-mashq**

Tanglayga tegishli katta egat.  
Yuqori, ko'ndalang boylam.  
Tanglayga tegishli teshik.  
Oldingi, medial yuza.  
Bo'yinda tegishli, yuqori nerv tuguni.  
Toshsimon, katta nerv.

**2-mashq**

Pastki, toshsimon bo'shliqning egati.  
Pastki, burunga tegishli chig'anoqning o'simtasi.  
Katta qanotning chakkaga tegishli yuzasi.  
O'ng tarafdag'i shoxning pastki qismi.  
Belga tegishli umurtqanining yuqori, bo'g'imga tegishli o'simtasi.

**3-mashq**

Tananing kichik, ko'krak qafasiga tegishli muskuli.  
Orqa miyaning oldingi shoxi.  
Qalqonsimon bezning tolali kapsulasi.  
Yonbosh, qanotsimon mushakning oldingi boshchasi.  
Ko'z olmasining pastki, qiyshiq mushagi.

**4-mashq**

Yelka suyagining kichik do'mboqchasi.  
Ichki, bo'yinturuqqa tegishli venaning pastki piyoqchasi.  
Yonbosh kanalning oldingi oyoqchasi.  
Bachadonning ichki qavati.  
Pastki jag'ning oldingi kesmasi.  
Pastki labning oldingi egati.

**5-mashq**

Og'iz bo'shlig'ining shilliqsimon qismi.  
Yonoq suyagining yonbosh yuzasi.  
Yuqori kesuvchi tishning ildizi.  
Insonning yuqori, sut tishlari.  
Qariyaning aql tishi.

Klinik terminlarni tarjima qiling:

**1-mashq**

1. Suyaklarni o'rganuvchi fan
2. Oyoq og'rig'i.
3. Yurakni rasmga olish
4. Qonni suyuqlashishi
5. Qondagi siydik
6. Oshqozon churrasi
7. Suvni sevuvchi

**2-mashq**

1. O'zidan infeksiyalanish
2. Yangi qon quyish
3. Qon donachalari
4. Bemorning umumiy ko'rinishi
5. O'lim bilan tugashi
6. Qonni va svanni sevuvchi
7. Axlatni to'xtab qolishi

**3-mashq**

1. Og'iz bo'shlig'ini o'rganuvchi fan
2. Oshqozon osti bezining yallig'lanishi
3. Tomirlarda qonning to'planishi
4. Suyakni odatdan tashqari yumshashi
5. Limfa tugunida hujayraning ko'payishi va kamayishi
6. Buyrakda toshning bo'lishi va buyrakni olib tashlash
7. O'pkada gazning bo'lishi va yiring oqishi

**4-mashq**

1. Qovoqning tushishi
2. Sochning yo'qligi

3. Ayol jinsiy bezlari bo'yicha mutahassis
4. Quruq teri
5. Shifokor kelganda hech narsani yashira olmayman
6. Terlamaslik kasali

#### **5-mashq**

1. Tish og'rig'i
2. Qon bilan davolash
3. Ko'krak qafasini o'lhash
4. Burunni asboblar bilan tekshirish
5. Tog'ayning surunkali kasalligi
6. Umurtda churrasi

#### **6-mashq**

1. Muskuldagi shish
2. Qondagi zahar va zaharni o'rganuvchi fan
3. Rak shishi va shishlarni o'rganuvchi fan
4. Qo'lni ishlashi, qo'l yo'qligi.
5. Harakatning buzilishi
6. Salbiy oqibat

#### **7-mashq**

1. Kindikning yallig'lanishi
2. Qindagi churra
3. O'pkadagi sil tayoqchalarining ko'payishi
4. Oshqozon,to'g'ri ichakni o'rganuvchi fan
5. O'pka raki
6. Buyrakni fiksatsiya qilish
7. Qorinni kesish

#### **8-mashq**

1. Qora taloqdan qonning oqishi
2. Vaqtinchalik havo olishning buzilishi
3. Sekin nafas olish
4. Yurakning tez urishi
5. Og'ir xolera
6. Hayot daraxti
7. Tabiat sog'aytiradi, shifokor kasalni davolaydi.

#### **9-mashq**

1. Burun kasalliklarini o'rganuvchi fan
2. Oshqozonning kengayishi
3. Yurakning tez urishi
4. Suyakning yumshashi
5. Tishni olib tashlash
6. Yog'ning to'planishi, qarilarni o'rganuvchi fan
7. Hayotni o'rganuvchi fan

#### **10-mashq**

1. Teri bezining yallig'lanishi va terlamaslik
2. Orqa miya shsishi
3. Qondagi siyidik
4. Teridan yiringni oqishi
5. Hayot haqidagi fan
6. Qondagi suv
7. O't pufagidagi yiring va qon

#### **11-mashq**

1. Oyoqning kattalashib ketishi
2. Yuqori jag' og'rig'i
3. Chambar va to'g'ri ichakni o'rganuvchi fan
4. Oshqozondagi havo
5. Bachadonni operatsiya yo'li bilan olib tashlash
6. Siyidik yo'lidagi tosh
7. Siyidikdagi yiring va qon

#### **12-mashq**

1. Ter bezlarining shishi
2. Suv va qon bilan davolash
3. Qizil qon donachalari
4. Chuqurni o'lhash
5. Yangi teri
6. Salbiy oqibat
7. Og'izdan badbo'y hid kelishi

**13-mashq**

1. Kasalliklar haqidagi fan
2. Umurtqa churrasi va uni o'rganuvchi fan
3. Mushak murtagi,o'simasi
4. Kislotaning ko'payishi
5. Bolalar vrachi
6. Ichakni tushib qolishi va kengayishi
7. Qorinni kesish
8. Yurak falaji

**14-mashq**

1. Ichakdagi bir muddatli kuchli og'riq
2. Tish nervini olib tashlash
3. Boshqalardan kasallanishi
4. Kalta oyoq
5. Juda yaxshi oqibat
6. Burunni asbob yordamida tekislash
7. Juda yaxshi ob-havo

**15-mashq**

1. Suyakni o'rganuvchi fan
2. Labning plastik operatsiyasi
3. Boshni va umurtqani o'hash
4. Nerv tomirlarida qonning ko'payishi
5. Bachadon tushishi
6. Bosh miya parda churarsi
7. Tomirlarning kengayishi

**16-mashq**

1. Yiring oqishi
